

№ 4 (20) 2026

ISSN 2181-1822

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI



AXBOROTNOMASI

ILMIY-AMALIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY VA SIYOSIY-HUQUQIY JURNAL

**KUCH – BILIMDA,
SHARAF –
A'LO XIZMATDA!**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI**

AXBOROTNOMASI

№ 4 (20) 2026

Toshkent – 2026

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR
VAZIRLIGI MALAKA OSHIRISH INSTITUTI



AXBOROTNOMASI

Ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy va
siyosiy-huquqiy jurnal

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

Maqolalar o'zbek, rus va ingliz tillarida,
lotin, kirill yozuvida chop etiladi.
Maqolalarda keltirilgan iqtiboslar,
dalillar, raqamlar va ma'lumotlarning
aniqligi uchun muallif javobgardir.
Jurnaldan ko'chirib olingan manba
ko'rsatilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka
oshirish instituti Axborotnomasi O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
2022-yil 20-mayda №1630-sonli guvohnoma bilan
ro'yxatdan o'tgan.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy attestatsiya komissiyasi O'zbekiston
Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
“Malaka oshirish institutining Axborotnomasi”
ilmiy-amaliy jurnali 2023-yil 15-iyunda
OAK Rayosatining 339/6-son hamda
2024-yil 28-iyundagi OAK Rayosatining 356/5-son
qarorlariga asosan yuridik va tarix, siyosiy va
falsafa, pedagogika va texnika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD) va fan doktorlari (DSc) ilmiy
darajasiga talabgorlarning dissertatsiya
ishlari asosiy ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilganligini ma'lum qiladi.

Muassis:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI

Bosh muharrir:

Olimjon AXMEDOV

Nashr uchun mas'ul:

Bahodir JOVLIYEV

Jamoatchilik

Kengashi tarkibi:

Nuriddin NORMATOV
Bahodir MATLYUBOV
Diyorbek SATTAROV
Umidsbek NURULLAYEV

Hay'at a'zolari:

Olimjon AHMEDOV
Ulug'bek RASULEV
Karim NORMATOV
Jo'raboy TOSHQULOV
Farhod XATAMOV
Muzaffar TOJIBOYEV
Mehmonali SUVANQULOV
Erkinjon MARUPOV

Tahririyat:

Mas'ul muharrir:

Nargiza BERDIYEVA

Musahhih:

Nurafshon XATAMOVA

Sahifalovchi-dizayner:

Zafar RO'ZIYEV

Axborotnoma “Til va adabiyot” MCHJ
tahririyatida nashrga tayyorlandi.

Manzil: Toshkent shahar, Shayxontahur
tumani, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Rasmiy sayt:

https://ipkmvd.uz/institut_axborotnoma/

Murojaat uchun: @Axborotnoma_IIV


Bosishga ruxsat etildi: 30.07.2026.

Buyurtma № 181

Qog'oz bichimi 60x84 1/32. Shartli b. t.-7,8.

Adadi 100 nusxada chop etildi.

100213, Toshkent shahar, Bektemir tumani,
H.Boygaro ko'chasi, 27a-uy.



MUNDARIJA

SIYOSIY FANLAR

- Elizaveta KUTIBAEVA,**
Saparbay ALLAMBERGENOV.
 IJRO ETUVCHI HOKIMIYAT ORGANLARI TIZIMIDA
 HUKUMATNING TUTGAN O'RNI 6
- Saparbay ALLAMBERGENOV.**
 HUKUMATNING HUQUQ IJODKORLIK
 FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH 9

Дилобар БОЙМАТОВА.

- КОНСТИТУЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА:
 СУЩНОСТЬ, СОДЕРЖАНИЕ И РОЛЬ
 В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ
 СОВРЕМЕННОГО ГОСУДАРСТВА..... 13

YURIDIK FANLAR

- Muhammadrasul UMMATOV.**
 JAMOAT XAVFSIZLIGINI
 TA'MINLASHNING NORMATIV-HUQUQIY
 ASOSLARINING TAHLILI 16
- Zafarbek BOBOQULOV.**
 KOREYA RESPUBLIKASI MILLIY POLITSIYA
 AGENTLIGI XODIMLARINING KASBIY
 MADANIYATI VA XIZMAT INTIZOMINI
 TA'MINLASH..... 23

PEDAGOGIKA FANLARI

- Zebo NAMOZOVA.**
 RAQAMLI MEDIA MEHNAT SOHASIDAGI
 HUQUQIY SAVODXONLIKNI
 OSHIRISHNING KOMMUNIKATIV OMILI 28



Elizaveta KUTIBAEVA,

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti professori,
yuridik fanlar doktori, professor;*

Saparbay ALLAMBERGENOV,

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti tadqiqotchisi
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

IJRO ETUVCHI HOKIMIYAT ORGANLARI TIZIMIDA HUKUMATNING TUTGAN O'RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada ijro etuvchi davlat hokimiyati organlari, shu jumladan, hukumat va uning boshqa davlat hokimiyat organlari tizimida tutgan o'rni hamda o'ziga xos xususiyatlari ilmiy-huquqiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: *"Ijro etuvchi hokimiyat", "Hukumat", "Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumati" "Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining konstitutsiyaviy-huquqiy vakolatlari".*

Аннотация: в статье с научно-правовой точки зрения рассматриваются роль и особенности органов исполнительной власти, включая правительство и иные государственные органы в данной системе.

Ключевые слова: *"исполнительная власть", "Правительство", "Правительство Республики Каракалпакстан", "конституционно-правовые полномочия Правительства Республики Каракалпакстан".*

Annotation: the article examines, from a scientific and legal perspective, the role and specific features of executive authorities, including the government and other state bodies, within this system.

Key words: *"executive power", "Government", "Government of the Republic of Karakalpakstan", "constitutional-legal powers of the Government of the Republic of Karakalpakstan".*

Ma'lumki, davlat boshqaruvida hokimiyatlar bo'linishi prinsipi qadimdan hozirga qadar soha olimlari tomonidan tadqiq etib kelinmoqda. Xususan, ingliz mutafakkiri Dj.Lokk, hokimiyatlar bo'linish nazariyasining asosiy qoidalarini tizimlashtirib, qonunchilik hokimiyatini faqat saylab qo'yiladigan organ orqali amalga oshirilishini, vakillik organlari qonunlarni ijro etish bilan shug'ullanishi mumkin emasligini ta'kidlab o'tgan. Shuningdek, muntazam faoliyat yurituvchi ijro hokimiyat organlarini barpo qilishni taklif etib, davlat hokimiyatining poydevori sifatida "ijtimoiy shartnoma" g'oyasini ham ilgari surgan [1.S.349-350]. Fransuz mutafakkiri Sh.Monteske esa, hokimiyat bo'linishi nazariyasini rivojlantirib, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati to'g'risida qoidalarni ishlab chiqqan. Ungacha sud hokimiyati hech bir olim tomonidan alohida hokimiyat sifatida ajratilmagan. U qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatning bir shaxs yoki idora qo'lida bo'lishi hamda qo'shilib ketishi erkinliklarning cheklanishiga olib kelishi mumkinligini, xuddi shuning barobarida sud hokimiyatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan mustaqil mavjud bo'lmashligi ham erkinlikni cheklashi haqida ogohlantirgan [2.S.290-291].

XIX–XX asrlarda hokimiyatlar taqsimlanishi g'oyasi borgan sari kengroq tarqalib, vaqt o'tishi bilan sivilizatsiya va demokratiyaning umum e'tirof etgan prinsipiga aylandi [3.S.149]. Hokimiyatlar taqsimlanishi – davlat tuzilmalarining samarali faoliyat ko'rsatishi, suiiste'molliklarning oldi olinishi, inson huquqlari va erkinliklarining himoya etilishi, umuman qonuniylik ta'minlanishining mustahkam garovidir. Hokimiyatlar taqsimlanishi real qaror topmasa, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, adolatli huquqiy qonunchilik qaror topishi

dargumon [4.B.70]. Hokimiyatlarning bo'linishi davlatda huquqning rivojlanganlik darajasini ko'rsatadi, ya'ni u siz huquqiy davlat ham, adolatli qonunlar ham bo'la olmaydi [5.B.19].

Ma'lumki, ijro organlar tizimida hukumat alohida o'rin tutadi. Tadqiqotlarda hukumatning ijro organlar tizimida tutgan o'rni, uning asosiy faoliyati, faoliyat printsiplari, tuzilishi, tarkibi va belgilari masalalari o'z ifodasini topgan. Jumladan, huquqshunos olim Z.I.Gadilshina, hukumatning bir necha belgilarini ko'rsatib uning fikricha, hukumat birinchidan, mustaqil davlat hokimiyati tarmog'ini tashkil etib, ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi; ikkinchidan, amalda ijro hokimiyati organlariga rahbarlik qiladi; uchinchidan, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlaydigan boshqaruvning barcha tarmoq va jabhalariga rahbarlikni amalga oshiruvchi umumiy vakolatga ega organ hisoblanadi, va nihoyat, to'rtinchidan, davlatning barcha hududlarida umummajburiy bo'lgan hujjatlar qabul qiladigan kollegial organ [6.S.11] deb ta'riflaydi. Fikrimizcha, muallif hukumatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydigan boshqaruvning barcha tarmoq va jabhalariga rahbarlikni amalga oshiruvchi umumiy vakolatga ega organ deb hisoblashini o'rinli ta'riflagan, ammo hukumat faqatgina iqtisodiy va ijtimoiy sohalarining rivojlanishini ta'minlashi bilan birga, mamlakat hududida madaniy va boshqa sohalariga ham vakolati doirasida rahbarlikni amalga oshirishi, mazkur sohalarida ham hukumat tarkibida davlat organlari va boshqaruv tuzilmalari mavjudligini qayd etishimiz mumkin.

Fikrimizning tasdig'i sifatida huquqshunos olim B.P.Eliseyev tomonidan ilgari surilgan fikriga to'xtalamiz.

U hukumatda iqtisodiyot, ijtimoiy-madaniy sohalarda keng vakolatlari mavjudligi, huquqni muhofaza qilish faoliyati, ma'muriy-siyosiy qurilish, shuningdek, vazirlik va ijro etuvchi boshqa organlar faoliyatini birlashtiruvchi, muvofiqlashtiruvchi va yo'naltiruvchi rolini alohida ajratadi. Muallifning hukumat Konstitutsiya, qonunlar va Prezident farmonlari asosida va ularni ijro etish maqsadida qarorlar va farmoyishlar qabul qilishini alohida belgi hisoblanadi deb e'tirof etgan. Ushbu e'tirofga huquqshunos olim A.E.Raxmanov esa, qo'shimcha belgi sifatida kollegiallik belgisini ko'rsatib, hukumat tarkibiga maxsus (tarmoq va tarmoqlararo) vakolatga ega barcha yoki o'ta muhim davlat boshqaruvi organlarining rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslar (masalan, Bosh vazir o'rinbosarlari, hukumat apparati boshlig'i va boshqalar) kiradi. Bundan tashqari, hukumatga uning hisobdorligi va javobgarligi ham xosdir [7.B.27,31], deb ko'rsatib o'tadi.

Huquqshunos olim H.T.Odilqoriyev, ijroiya hokimiyat ham vertikal, ham gorizontal ravishda o'zaro bog'langan davlat organlarining muayyan tizimidan iborat [8.B.239] deb ta'riflaydi. Haqiqatan ham, O'zbekistonda ijro hokimiyat organlari mavjud bo'lib, ushbu organlar quyidan yuqoriga bo'ysunishi asosida faoliyat yuritadi. Bu bevosita umumiy vakolatli ijro hokimiyat organi – Vazirlar Mahkamasi oldida uning tarkibidagi davlat organlari va xo'jalik boshqaruv tuzilmalarining hisobdorligini e'tirof etishimiz mumkin.

Huquqshunos olim Y.D.Kutibayeva, respublikada ijro hokimiyatni amalga oshirish uchun yaxlit organlar (apparat) tizimi mavjud bo'lib, ular umumiy vakolatga ega ijro organlarni (masalan, respublika Vazirlar Kengashi,

tuman va shahar hokimlari), shuningdek, davlat boshqaruv mexanizmining tarmoqlar, tarmoqlararo va boshqa bo'g'inlarini o'z ichiga oladi [9.B.148], deb ta'riflaydi. Darhaqiqat, Qoraqalpog'istonda ham oliy, markaziy va mahalliy ijro etuvchi davlat hokimiyat organlari mavjud bo'lib, ushbu organlar ham quyidan yuqoriga (vertikal) bo'ysunishi prinsipi asosida faoliyat yuritishiga doir qoidalar Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonun hujjatlarida mustahkamlangan. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Hukumati oldida uning tarkibiga kiruvchi davlat organlari, xo'jalik boshqaruv tuzilmalari va mahalliy davlat hokimiyat organlarining hisobdorligi (vertikal bo'ysunish prinsipi asosida)ni qayd etishimiz mumkin.

Yuqorida bildirilgan g'oyalar va ushbu qarashlarga bildirilgan fikrlarimizga tayanib "ijro etuvchi hokimiyat" tushunchasi va "uning o'ziga xos asosiy xususiyatlari", shuningdek, "Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumati" tushunchalarini nazariy-huquqiy jihatdan yoritishga harakat qilamiz.

Ijro etuvchi hokimiyat – davlatning tegishli asosiy vazifa va vakolatlarni amalga oshirish maqsadida tashkil etiladigan, o'z tuzilishi, huquq doirasi va faoliyat ko'rsatish hududiga ega bo'lgan, davlat hokimiyatining mustaqil organi.

Ijro etuvchi hokimiyatning o'ziga xos asosiy xususiyatlariga

quyidagicha to'xtalamiz:

- *birinchidan*, ijro hokimiyati vakillik va sud hokimiyati singari alohida davlatning mustaqil tarmog'i hisoblanadi;
- *ikkinchidan*, Konstitutsiya va qonunlar asosida va



ularning ijrosini ta'minlashda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'muriy-siyosiy, moliyaviy, xo'jalik va madaniy sohalarini davlat nomidan boshqaradi;

– *uchinchidan*, umummajburiy normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi;

– *to'rtinchidan*, jamiyat hayotidagi mavjud ehtiyojlar asosida vakillik organiga qonunchilik tashabbusini amalga oshiradi;

– *beshinchidan*, Konstitutsiya va qonunlar asosida tarkibidagi ijro organlar faoliyatini yo'naltirish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish orqali boshqaradi;

– *oltinchidan*, barcha ijro organlar qonun hujjatlarda belgilangan vakolatlarini doirasida mamlakatning barcha hududida yoki muayyan bir ma'muriy hududida amalga oshiradi va hokazo.

Hukumat – Konstitutsiya va qonun hujjatlar ijrosini ta'minlash orqali mamlakatning ichki va tashqi siyosatida ijro hokimiyat nomidan ishtirok etuvchi, tegishli sohalarini boshqarishda huquq ijodkorlik faoliyati va qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshiruvchi, barcha ijroiya organlar faoliyatiga rahbarlik qiluvchi va belgilangan tartibda shakllantiruvchi, faoliyati bo'yicha davlat boshlig'i va parlament oldida hisob beruvchi, umumiy vakolatga ega bo'lgan mamlakatning oliy ijro etuvchi va farmoyish beruvchi mustaqil kollegial organi.

Qoraqalpog'iston hukumatining davlat apparati tizimida tutgan o'rnini esa, quyidagicha izohlaymiz:

– Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat apparatida hukumat oliy ijro etuvchi-boshqaruvchi mustaqil kollegial organi hisoblanadi;

– Hukumat Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi va tegishli qonun hujjatlarning samarali ijrosini ta'minlashi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalariga umumiy rahbarlik qiladi, respublika byudjeti loyihasini qonun hujjatlar asosida ishlab chiqadi, ularni shakllantiradi va ijrosi ustidan umumiy nazorat qiladi;

– Hukumat o'z tarkibida bir nechta davlat va xo'jalik

boshqaruvi organlarini qamrab oladi, ularning faoliyatini qonun hujjatlar asosida yo'naltiradi, muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi, shuningdek, ushbu organlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni tashkil etadi, ular o'rtasida paydo bo'lgan bahsli masalalarni tegishli qonun hujjatlar asosida hal qiladi;

– Hukumat respublikada umummajburiy normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Parlamentiga qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshiradi;

– Hukumat qonun hujjatlar asosida davlat xavfsizligi va mudofaa qobiliyatini ta'minlash, davlat chegaralarini qo'riqlash, davlat manfaatlarini himoya qilish va jamoat tartibini saqlash bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqadi;

– Hukumat O'zbekiston va Qoraqalpog'iston qonun hujjatlari asosida Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy faoliyatini amalga oshiradi;

– Hukumatning yaxlit tizimiga hukumat Raisi, uning o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasining vazirlari, davlat qo'mita raislari va boshqa ijro organ boshliqlari tarkibida rahbarlik qiladi va hokazo. Demak, hukumat o'zining huquqiy tabiatiga ko'ra boshqaruv organlaridan, funksional ahamiyatiga ko'ra esa, davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlaridan farq qiladi. Yuqoridagi fikr va mulohazalarimiz asosida xulosa qilib Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumati tushunchasini nazariy-huquqiy jihatdan yoritishga harakat qilamiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumati

Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonun hujjatlari asosida davlatning tegishli asosiy vazifa va vakolatlarini bajaruvchi, umummajburiy huquq ijodkorlik va qonunchilik tashabbusini amalga oshiruvchi, tarkibida ijro organlar yaxlit tizimini qamrab oluvchi va ularning faoliyatini yo'naltiruvchi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Parlamenti oldida hisob beruvchi, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyatining oliy ijro etuvchi-boshqaruvchi mustaqil kollegial organi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lokk Dj. // Sochineniya: V 3-x t. – T.3. M.: Misl, 1988. – S. 349–350.
2. Monteske Sh.L. Izbranniye proizvedeniya: V 2-x t. – M.: Gospolitizdat, 1955. – S. 290–291.
3. Baglay M.V. Konstitutsionnoye pravo Rossiyskoy Federatsii: 6-e izd., izm. I dop. – Moskva, Norma, 2007. – S. 149.
4. Odilqoriyev X.T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. – T., 2002. 70-b.
5. Vohidov Z.T. O'zbekiston Respublikasida hokimiyat bo'linishi prinsipining amaliy ifodasi: Yurid. fan. nomz. ... dis. avtoreferati. – T., 2000. 19-b.
6. Gadilshina Z.I. Pravovoye polozeniye Kabineta Ministrov – Pravitel'stva Respubliki Tatarstan: Avtoref. dis. ...kand. yurid. nauk. – Kazan', 2003. – S. 11. // http://www.law.edu.ru/book/book.asp?bookID=87196#_ftnref4 - murojaat qilingan sana – 11.11.2022.
7. Yelisseyev B.P. Sistema organov gosudarstvennoy vlasti v RF: Avtoref. dis. ...d-ra yurid. nauk. – M., 1988. – S.31.; Raxmanov A.E. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi: Yurid. fan. nomz. ...dis. – T., 2008. – B.27.
8. Odilqoriyev H. T., Tulteyev I. T., Azizov N. P. Davlat va huquq nazariyasi. –T., 2009. – B.239.
9. Kutibayeva Ye.D. Organi ispolnitelnoy vlasti Respubliki Karakalpakstan: Dis. ...d-ra. yurid. nauk. – T., 1999. – S.238–248.; Organi ispolnitelnoy vlasti Respubliki Karakalpakstan. – N., 2001. – S.148.



Saparbay ALLAMBERGENOV,

*Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat universiteti tadqiqotchisi
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

HUKUMATNING HUQUQ IJODKORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada davlat hokimiyati, shu jumladan, hukumat va boshqa ijro etuvchi davlat organlarining huquq ijodkorlik faoliyati nazariy-huquqiy jihatdan tahlil etilib, ushbu sohani tartibga soluvchi ayrim qonun hujjatlarni yanada takomillashtirish takliflari ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: *“Normativ-huquqiy hujjat”, “Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining huquq ijodkorlik faoliyati”, “Qonunchilik tashabbusi huquqi va uning subyektlari”, “Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengeshidagi vakolatli vakili”.*

Аннотация: в статье с теоретико-правовой точки зрения анализируется нормотворческая деятельность органов государственной власти, включая правительство и иные органы исполнительной власти, а также выдвигаются предложения по дальнейшему совершенствованию отдельных правовых актов, регулирующих данную сферу.

Ключевые слова: *«Нормативный правовой акт», «Законодательная деятельность Правительства Республики Каракалпакстан», «Право законодательной инициативы и его субъекты», «Полномочный представитель Совета Министров Республики Каракалпакстан в Жокаргы Кенесе Республики Каракалпакстан».*

Annotation: the article analyzes the rule-making activities of state authorities, including the government and other executive bodies, from a theoretical-legal perspective and puts forward proposals for the further improvement of specific legal acts regulating this sphere.

Key words: *“Normative legal act”, “Legislative activity of the Government of the Republic of Karakalpakstan”, “Right of legislative initiative and its subjects”, “Authorized representative of the Council of Ministers of the Republic of Karakalpakstan to the Jokargy Kenes of the Republic of Karakalpakstan”.*

Ma'lumki, davlat apparati tizimida hokimiyat organlarining konstitutsiyaviy-huquqiy vakolatlari bir-biridan farq qilishi bilan birga, ular tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlari ham yuridik kuchiga ko'ra farqlanadi. Bu normativ-huquqiy hujjatlar ichida qonun chiqaruvchi hokimiyat tomonidan qabul qilingan qonunlari eng ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Huquq ijodkorligi natijasida vujudga kelgan normalar turli rasmiy hujjatlarda o'z ifodasini topadi va ularning aksariyati normativ-huquqiy hujjatlar deb nomlanadi.

Normativ-huquqiy hujjat – bu, normativ-huquqiy hujjatlar shaklida qabul qilingan va umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida qonunchilik normalarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir [1].

Normativ-huquqiy hujjatlar davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining xohish-irodasi mahsuli bo'lib, muayyan tartib-qoidalarni o'zida ifoda etuvchi huquq ijodkorligi hujjati hisoblanadi.

Bildirilgan fikrlarimiz asosida mustaqil O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren Qoraqalpog'iston Respublikasida normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan davlat organlarga qisqacha to'xtalishni joiz topdik. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Qoraqalpog'iston

Respublikasi Vazirlar Kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasining vazirliklari va idoralari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyat organlari haqlidir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida quyidagi hujjatlar normativ-huquqiy hujjat tusiga ega hisoblanadi:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi;
2. Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlari;
3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va uning Prezidiumi qarorlari;
4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qarorlari va farmoyishlari;
5. Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari va idoralarning buyruqlari va qarorlari;
6. Qoraqalpog'iston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyat organlarining qarorlari.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, Jo'qorg'i Kengesi va uning Prezidium qarorlari – Jo'qorg'i Kengesi va uning Prezidiumi tasdig'iga muvofiq, Jo'qorg'i Kengesi Raisi – Qoraqalpog'iston Respublikasi Rahbari tomonidan, Vazirlar Kengashi qarorlari va farmoyishlari – Vazirlar Kengashi Raisi tomonidan, markaziy va mahalliy ijro organlarning normativ-huquqiy hujjatlari esa, hujjatlarni qabul qiluvchi organ rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida huquq ijodkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tizimida asosiy ishtirok etuvchi subyekt sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumati va boshqa ijro organlar faoliyat olib boradi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunonchi, Asosiy qonun va qonun hujjatlarning samarali ijrosini ta'minlashda hukumat va boshqa ijro organlarning normativ-huquqiy hujjatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Hukumat normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishdagi faoliyatining asosiy maqsadiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

– *birinchidan*, Konstitutsiya va qonun hujjatlarning samarali ijrosini ta'minlashda vakolati doirasida respublika siyosatini amalga oshirish;

– *ikkinchidan*, Konstitutsiya va qonun hujjatlarda belgilangan respublika va ijro vakolatlarini samarali amalga oshirish;

– *uchinchidan*, respublikani ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, xususiylashtirishning barcha turlarini tenglashtirish va muvofiqlashtirish, bozor iqtisodiyotini huquqiy jihatdan mustahkamlash orqali erkin tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratish;

– *to'rtinchidan*, fuqarolarning ehtiyoji va talablari asosida xo'jalik boshqaruvining yangi turlarini tashkil etish;

– *beshinchidan*, respublikada pul va kredit tizimini mustahkamlashga qaratilgan tegishli chora-tadbirlarni belgilash, budjet tizimini shakllantirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– *oltinchidan*, tarkibida boshqaruv organlarni tuzish, qayta tuzish yoki tugatishga doir asosli takliflarni ishlab chiqish, ushbu organlar faoliyatini yo'naltirish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish hamda ular o'rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish;

– *yettinchidan*, Hukumatga bo'ysinuvchi barcha davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish va boshqaruvning tarmoq, tarmoqlararo organlar faoliyatini belgilash;

– *sakkizinchidan*, markaziy ijro organlarning mahalliy ijro organlari bilan o'zaro munosabatlarini ta'minlash va hokazo.

Bildirilgan fikr va mulohazalarimizdan kelib chiqib, Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining huquq ijodkorlik faoliyatini nazariy-huquqiy jihatdan yoritishga harakat qilamiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining huquq ijodkorlik faoliyati – Konstitutsiya va qonun hujjatlarga asosan davlat va ijro vakolatlarini amalga oshirish faoliyatida umummajburiy normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishi, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishi orqali takomillashtirishi yoki bekor qilishiga qaratilgan huquqiy faoliyatdir.

Ma'lumki, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish, ularning ertangi kundagi farovon hayotga bo'lgan ishonchlarini yanada oshirishda hukumatning normativ-huquqiy hujjatlari alohida o'rin tutadi. Shu bois hukumat tomonidan respublikaning tegishli sohalarini tartibga solishda ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish mexanizmida qonunchilik texnika qoidalariga qat'iy rioya etishi muhim

ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan qayd etish joizki, bugungi kunda hukumatning qonun osti hujjatlari uning tarkibidagi yuridik xizmat hamda respublika Adliya vazirligi tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazilib kelinmoqda. Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi. Xo'sh, hukumat va boshqa ijro organlarning normativ-huquqiy hujjatlari hukumat tarkibidagi tuzilma va davlat organi tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazilib kelinayotgan bo'lsa, ijro organlarning normativ-huquqiy hujjatlari qanchalik Konstitutsiya va qonun hujjatlar talablariga mosligi yuzasidan huquqiy ekspertizadan o'tkazilib kelinmoqda.

Nazarimizda, hukumat va boshqa ijro organlarning ushbu faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan ma'muriy islohotlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Shu o'rinda hukumatning qarorlari va farmoyishlari respublika normativ-huquqiy hujjat tusiga egaligi bo'yicha tahlil qilganimizda nazarimizda, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarurati mavjud bo'lgan huquqiy bo'shliqlar ko'zga tashlanadi. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi qonunining 4-moddasi "g" bandiga muvofiq, hukumatning qarorlari va farmoyishlari normativ-huquqiy hujjat tusiga ega bo'lgan me'yoriy hujjat sifatida belgilangan. Ammo, ushbu qonun 10-moddasining nomlanishida esa «Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining qarorlari» degan tor doiradagi qoida bilan chegaralangan. Nazarimizda, ushbu qonunning 10-moddasi nomlanishida normativ-huquqiy hujjat tusiga ega bo'lgan hukumatning farmoyishlari normativ-huquqiy hujjat sifatida hisobga olinmagan. Shu sababli, mazkur qonun 10-moddasi nomlanishiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari yo'lida qator ma'muriy islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu, o'z navbida, avvalo respublika vakillik organi bo'lmish – Jo'qorg'i Kengesning qonun ijodkorligi faoliyatida bevosita ishtirok etuvchi qonunchilik tashabbusi subyektlarining faol tashabbuskorligini oshirishni talab etishi tabiiy.

Qonun ijodkorligi jarayonida qonunchilik tashabbusi institutining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. U, *birinchidan*, "fuqaro – jamiyat – davlat" manfaatlari mushtarakligini ta'minlaydi; *ikkinchidan*, jamiyatda turli ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi; *uchinchidan*, vujudga kelayotgan huquqiy bo'shliqlarni o'z vaqtida bartaraf etishda muhim omil hisoblanadi va nihoyat to'rtinchidan, qonunchilik tashabbusi huquqi institutining takomillashtirilishi qonun ijodkorligining samaradorligini belgilovchi dolzarb mezonlardan biridir [2; B. 8].

Qonunchilik tashabbusi huquqi – bu, Konstitutsiyada belgilangan vakolatli subyektlarning qonun chiqaruvchi organga qonun loyihalarini taqdim etish huquqidir.

Xorijiy tajribaning ko'rsatishicha, hukumat ishlab chiqqan qonun loyihalarining parlament orqali o'tish samaradorligi aksariyat mamlakatlarda nihoyatda yuksak darajadadir

[3; S. 20-21].

Hozirgi kunda aksariyat mamlakatlarda milliy qonun hujjatlarini xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalariga muvofiqlashtirish, shu yo'nalishda ularning monitoringini muntazam olib borish, shuningdek, qonun hujjatlarining sifati va samaradorligini oshirish bilan birga, uning hayotiyligini ta'minlash bo'yicha yaxlit mexanizmini joriy etish va mamlakat miqyosida muvofiqlashtirishga doir masalalar dolzarbligicha qolmoqda. Shu sababli, fikrimizcha, Qoraqalpog'iston Respublikasining vakillik organi hamda qonunchilik tashabbusi subyektlari respublikaning normativ-huquqiy hujjatlarini loyihalarini ishlab chiqishda, avvalo, ratifikatsiya qilingan xalqaro hujjatlarining prinsiplari va normalariga asoslanib, ushbu loyihalarning mazmunida esa, mamlakatimiz Konstitutsiyasi va qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarni kengroq singdirish bo'yicha tanqidiy monitoring o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda qayd etish joizki, O'zbekiston Respublikasining vakolatli davlat organlari va qonunchilik tashabbus subyektlari faoliyatida ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari quyi organlarning asosli takliflari va tavsiyalari bilan birgalikda to'g'ridan to'g'ri davlatning vazifa va vakolatlarini amalga oshirmaydigan demokratik institutlar tomonidan belgilangan tartibda kiritilayotgan asosli taklif va tavsiyalarini ham inobatga olgan holda tayyorlanmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bu borada Qoraqalpog'iston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlariga nazar tashlasak, xususan, Konstitutsiyaning 75-moddasida Jo'qorg'i Kengesga Jo'qorg'i Kengesi deputatlari, hukumat, Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi, Fuqarolik ishlari bo'yicha sudi, Jinoyat ishlari bo'yicha sudi, Iqtisodiyot sudi va Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori qonunchilik tashabbusi bilan ishtirok etishga doir qoidalar belgilangan.

Shu o'rinda Jo'qorg'i Kengesi tomonidan qonun hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va qabul qilish mexanizmidagi hukumatning ishtirokiga to'xtaladigan bo'lsak, nazarimizda, hukumatning ishtirokini bevosita va bilvosita shakllarga shartli ravishda bo'lishimiz mumkin.

Hukumatning bevosita ishtirokida, hukumat o'z vakolatlarini amalga oshirishida yoki ijro organlar tomonidan taqdim etilgan taklif va tavsiyalar asosida mavjud huquqiy bo'shliqlarni huquq normalari bilan to'ldirishga qaratilgan qonunchilik tashabbusi orqali huquq ijodkorlik faoliyatini amalga oshirishini qayd etishimiz mumkin.

Hukumatning bilvosita ishtirokida esa, hukumatning to'g'ridan to'g'ri vakolatlariga tegishli bo'lgan, ammo, Jo'qorg'i Kengesga boshqa qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari tomonidan kiritilgan qonun hujjatlar loyihalari bo'yicha asoslantirilgan xulosa yoki takliflar berishi, shuningdek, natijasi bo'yicha hukumatning normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishini qayd etishimiz mumkin.

Qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lmagan ijro organlar tomonidan ishlab chiqilgan qonun hujjatlar loyihalari, agarda loyihani tayyorlash bo'yicha oliy ijro hokimiyat organining topshirig'ida boshqacha qoidalar belgilanmagan bo'lsa, ushbu organlar tomonidan ishlab chiqilgan qonun hujjatlar loyihalari Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining muhokamasiga belgilangan tartibda kiritilishi mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasida qonunchilik tashabbusi huquqiga ega subyektlar, shuningdek, hukumatning topshirig'iga binoan, ushbu tashabbusni amalga oshirish huquqiga ega bo'lmagan ijro organlar tegishli normativ-huquqiy hujjatlarining monitoringini o'tkazishda turli yo'nalishlarda tahlil ishlari olib boradi. Xususan, qiyosiy jadval asosida mavjud statistik ma'lumotlardan, rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalarini hisobga olib hamda ushbu



me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ijrosini ta'minlashda bevosita yoki bilvosita ishtirok etuvchi davlat organlari, tashkilotlar, muassasalar va mutaxassis olimlarning fikrlarini o'rganish orqali, shuningdek, qonuniylikka amal qilgan holda amalga oshiriladi.

Qonun hujjatlarining monitoringini o'tkazish jarayonida qonuniylikni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri sifatida ushbu jarayonda asosiy ishtirok etuvchi davlat organlari bilan birga, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari va demokratik institutlarning keng ishtirokini ham ta'minlash, shuningdek, mazkur subyektlar o'rtasida tenglik va o'zaro manfaatdorlik prinsiplariga rioya etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, qonun hujjatlari monitoringini faqatgina qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshiruvchi subyektlardan tashqari jamiyatda huquq normalari bilan tartibga solishga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlovchi, ammo to'g'ridan to'g'ri qonunchilik tashabbus huquqiga ega bo'lmagan subyektlar ham mavjud bo'lib, ular jumlasiga, fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari va demokratik institutlarni keltirishimiz mumkin.

Yuqoridagi tahlillarimizdan kelib chiqib, Qoraqalpog'iston Respublikasida huquq ijodkorlik sohasidagi hukumatning faoliyati "qonunchilik tashabbus huquqini amalga oshirish", "mamlakatning butun hududida bajarilishi umummajburiy normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish", "Jo'qorg'i Kengeshning qonun ijodkorligi jarayonida ishtirok etish", "Hukumat tarkibidagi barcha ijro organlar tomonidan me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va qabul qilishini nazorat etish" yo'nalishlarida olib boradi, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Fikrimizni davom etgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-sentyabrdagi PQ-3294-son «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidagi vakolatli vakili lavozimini joriy etish to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, hukumatning ijro etuvchi tuzilmasida Vazirlar Mahkamasining Oliy Majlisidagi vakolatli vakili lavozimi joriy etildi. Shuningdek, Vakolatli vakil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Bosh vaziri tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etilishiga doir qoida ham tasdiqlangan.

Qaror bilan Vakolatli vakilning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

1) Bosh vazir kotibiyatining tarkibiy bo'linmalari, respublika va mahalliy ijro organlarning Oliy Majlis palatalarida ko'rib chiqiladigan qonunlar va boshqa hujjatlar loyihalarini tayyorlashda o'zaro yaqin hamkorligini

ta'minlash, ularni Bosh vazir kotibiyatida ko'rib chiqish, kelishish va axborot berish jarayonlarida ishtirok etish;

2) Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlislarida qonunlar loyihalari, boshqa masalalarni muhokama qilish va Oliy Majlisi palatalarida qonun loyihalarini (qonunlarni) ko'rib chiqishda ishtirok etadigan Hukumat vakillari tarkibini shakllantirishda ishtirok etish;

3) Vazirlar Mahkamasining Oliy Majlis palatalari bilan qonun ijodkorligi faoliyatida, ayniqsa, mamlakat parlamentida qonunlarni ko'rib chiqish, muhokama etish va qabul qilish jarayonlarida yaqin hamkorligini tashkil etish;

4) Oliy Majlis palatalarida ko'rib chiqiladigan qonun loyihalari, qonunlar, davlat dasturlari va boshqa masalalar yuzasidan Vazirlar Mahkamasining kelishilgan nuqtayi nazarini ifoda etish;

5) qonun ijodkorligi jarayoni, qonunchilik tashabbuslarining qabul qilinishi, parlament nazorati natijalari va o'z faoliyatiga taalluqli boshqa masalalarning Oliy Majlis palatalarida ko'rib chiqilishi haqida Bosh vazirga hamda Bosh vazir kotibiyati rahbariga tizimli asosda axborot berish;

6) yangi qabul qilingan qonunlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari, rejalari hamda qarorlari tayyorlanishini tashkil etish, respublika va mahalliy ijro organlar tomonidan amaldagi qonunlar ijrosini o'rganish va tahlil qilish;

7) qonunlar, davlat dasturlarining bajarilishi va boshqa yo'nalishlar bo'yicha parlament nazoratini amalga oshirishda Vazirlar Mahkamasining ishtirokini ta'minlash.

Nazarimizda, O'zbekiston Respublikasi parlament palatalari va hukumat o'rtasidagi uzluksiz munosabatlarni amalga oshiruvchi doimiy vakil instituti bevosita ushbu davlat hokimiyati organlarining samarali hamkorligini tashkil etish va amalga oshirishi bilan birga, O'zbekiston Respublikasi parlamenti va hukumati o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini yanada ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Fikrimizcha, ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar o'z navbatida, mustaqil O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyat organlari, shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va hukumati o'rtasidagi uzluksiz va samarali munosabatlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan ma'muriy islohotlar amalga oshirilishi zarur, deb hisoblaymiz. Bu, o'z navbatida, «Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengeshidagi vakolatli vakili to'g'risida»gi Nizomini ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlashni talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qoraqalpog'iston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi qonuni. Nukus, 2001. 2-m.// <http://sovmnrk.gov.uz/uz/pages/show/1794>

2. Xusanova M.A. Qonunchilik tashabbusi huquqi: muammolar va yechimlar: Yurid. fan. nomz. ... dis. avtoref. – T.: TDYUI, 2012. 8-bet.

3. Дмитриев С.А. Конституционно-правовой статус Правительства Российской Федерации: Автореф. дис. ...канд. юрид. наук. – Москва, 2006 – С. 20–21.

Дилобар БОЙМАТОВА,
*кандидат юридических наук, доцент кафедры теории и истории
государства и права Таджикского государственного
университета права, бизнеса и политики*

КОНСТИТУЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА: СУЩНОСТЬ, СОДЕРЖАНИЕ И РОЛЬ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОГО ГОСУДАРСТВА

Аннотация: изучение и исследование проблем конституционной экономики в последние годы приобрело особую актуальность в связи с необходимостью обеспечения устойчивого социально-экономического развития государства, совершенствования механизмов конституционно-правового регулирования экономических отношений, укрепления принципов верховенства права и повышения эффективности реализации конституционных гарантий экономических прав и свобод человека и гражданина. В статье затрагиваются проблемы, связанные с необходимостью обеспечения баланса публичных и частных интересов, повышения эффективности государственного управления и реализации конституционных принципов в сфере экономической политики.

Ключевые слова: государство; экономика; конституция; конституционная экономика; политическая экономия; экономический конституционализм.

Annotation: the study and research of problems of constitutional economics in recent years has acquired particular relevance in connection with the need to ensure sustainable socio-economic development of the state, improving the mechanisms of constitutional-legal regulation of economic relations, strengthening the principles of the rule of law, and enhancing the effectiveness of the implementation of constitutional guarantees regarding the economic rights and freedoms of the individual and the citizen. The article addresses issues related to the need to balance public and private interests, enhance the efficiency of public administration, and implement constitutional principles in the sphere of economic policy.

Key words: state; economy; constitution; constitutional economics; political economy; economic constitutionalism.

Annotatsiya: konstitutsiyaviy iqtisodiyot muammolarini o'rganish va tadqiq etish so'nggi yillarda davlatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, iqtisodiy munosabatlarni konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish, huquq ustuvorligi tamoyillarini mustahkamlash hamda inson va fuqaroning iqtisodiy huquq va erkinliklariga oid konstitutsiyaviy kafolatlarni amalga oshirish samaradorligini oshirish zarurati bilan bog'liq holda alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada ommaviy va xususiy manfaatlar muvozanatini ta'minlash, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish hamda iqtisodiy siyosat sohasida konstitutsiyaviy tamoyillarni amalga oshirish zarurati bilan bog'liq masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: davlat; iqtisodiyot; konstitutsiya; konstitutsiyaviy iqtisodiyot; siyosiy iqtisod; iqtisodiy konstitutsionalizm.

В последние годы в научной среде все чаще используются термины «конституционная экономика», «экономический конституционализм».

Конституционная экономика изучает принципы оптимального сочетания экономической целесообразности с достигнутым уровнем конституционного развития, который отражается в нормах конституционного права и регламентирует экономическую и политическую деятельность в государстве [4, с.4]. Изучение и исследование проблем конституционной экономики требует комплексного подхода и имеет большое практическое значение, так как позволяет преодолеть незнание юристами вопросов экономики, и, наоборот, незнание экономистами норм конституционного права.

Одной из важнейших задач конституционной экономики является единообразное использование и юристами, и экономистами юридической и экономической терминологии.

Но можно с уверенностью констатировать тот факт, что нет никаких оснований для существования таких категорий, как «налоговая конституция», «финансовая конституция», «экономическая конституция» и т.п. [5, с.21]. Данные термины никак не могут рассматриваться в качестве самостоятельных конституционно-правовых категорий. В данном случае речь идет, скорее всего, о конституционно-правовом регулировании экономических общественных отношений. Все существующие в современных государствах конституции содержат правовые нормы, регулирующие важнейшие общественные отношения, включающие в том числе и экономическую сферу [6, с.12].

По мнению Н.С.Бондаря, одной из главных особенностей конституционной экономики является отождествление данной категории с «конституционной политической экономией». В данном случае речь идет об экономическом анализе управленческих процессов,

т.е. о применении экономической теории в политологии [7, с.22]. Конституционная экономика в этом смысле тесно связана с политической философией, а сама конституция понимается как “совокупность правил общественного порядка” [8, с.8].

Концепция конституционной экономики развивалась изначально в отрыве от юриспруденции и классических представлений о конституции как основном законе государства. Но в странах содружества данное научное направление формируется и развивается прежде всего усилиями представителей юридической науки. Конституционная экономика характеризуется чаще всего как научное направление, изучающее принципы оптимального сочетания экономической целесообразности с достигнутым уровнем конституционного развития, т.е. это вопросы экономического влияния на решение правовых, в том числе конституционных, проблем в законотворческой, судебной и иной деятельности.

Конституционные положения, относящиеся к экономике, продиктованы практическими потребностями и без сомнений требуют проведения научных исследований. При исследовании конституционно-правовых норм и институтов используется определенного рода терминология, которая позволяет анализировать конституционно-правовое регулирование экономических отношений в конкретном государстве. Ввиду того, что финансово-экономическая система развивающихся государств динамична и сложна, требуется поиск новых подходов к исследованию и конституционно-правовому юридическому оформлению. В связи с этим, весьма важными представляются как исследования экономистов в конституционно-правовой сфере регулирования экономических процессов (что более характерно для западных представлений о конституционной экономике), так и конституционно-правовой, юридический в своей основе, анализ экономических явлений и их нормативно-правовой базы, что более характерно для доктрины конституционной экономики постсоветского пространства.

Конституционная экономика призвана решить несколько взаимосвязанных задач, к числу которых можно отнести следующие:

- выявление конституционно-правовых предпосылок эффективного развития экономики;

- анализ воздействия экономики на государство;

- изучение воздействия экономических кризисов на государство и воздействие конституционных кризисов на экономику;

- изучение влияния глобализации мировой экономики на конституционные процессы в конкретных странах;

На наш взгляд, решение поставленных задач возможно только на основе сочетания конкретно-исторического подхода, экономического и сравнительно-правового анализа, т.е. это процесс формирования и функционирования конституционной социально ориентированной экономической организации государственности. В связи с этим, Н.С.Бондарь подчеркивает, что

термины “конституционная экономика” и “экономический конституционализм” это не синонимы. Это относительно самостоятельные, но тесно взаимосвязанные направления научных исследований, которые требуют совместных научных исследований юристов, экономистов, политологов, философов, историков, социологов.

При этом в основе концептуального обоснования категории экономического конституционализма лежит Конституция как нормативно-правовая основа социально-экономического развития государства.

Составляя проекты Конституции Республики Таджикистан, принятой 6-го ноября 1994 года путем проведения всенародного референдума, ее разработчики находились в условиях политического противостояния. Формирование современной конституционной системы Республики Таджикистан проходило в исключительно сложных исторических и политических условиях становления суверенного государства и гражданского противостояния. Именно поэтому деятельность Конституционной комиссии представляет собой важнейший этап государственного строительства. Следует отметить, что создание и деятельность конституционной комиссии условно можно разделить на три этапа. 23 августа 1990 года Верховный Совет Таджикской ССР под руководством первого секретаря ЦК Коммунистической партии Таджикской ССР К.М. Махкамова принял решение об образовании Конституционной комиссии по подготовке проекта новой Конституции независимого Таджикистана. 24 августа 1990 года была принята Декларация о государственном суверенитете Таджикской ССР [2] и возникла необходимость пересмотра действующей Конституции 1978 года [3], которая не соответствовала новым общественным и социально-политическим реалиям.

После провозглашения государственной независимости Республики Таджикистан 9 сентября 1991 года возникла объективная необходимость в разработке принципиально нового Основного закона независимого государства. Однако политическая нестабильность и гражданская война приостановили работу Конституционной комиссии. На первый план вышла защита национальных интересов народа Таджикистана, сохранение целостности государства, конституционного строя и государственных институтов.

После проведения XVI сессии Верховного Совета Республики Таджикистан 16 ноября 1992 года, сыгравшей ключевую роль в восстановлении государственной власти и системы государственных органов, Председателем Конституционной комиссии был назначен Председатель Верховного Совета Республики Таджикистан Эмомали Рахмон. Изучение мирового опыта конституционного строительства, анализ конституций демократических государств, взаимодействие с международными экспертами позволили составить несколько редакций проекта Конституции независимого Таджикистана. Закрепляя правовые достижения и ценности в Конституции Республики Таджикистан, акцент был сделан в сторону

закрепления прав и свобод человека и гражданина и попытки закрепить в конституционных нормах схему организации системы высших органов государственной власти – Президента, Маджлиси Оли (Парламента), Хукумата (Правительства). Вместе с тем, некоторые проблемы, объективно требующие закрепления в тексте конституции, остались, к сожалению, в стороне. Речь идет об основах экономики, экономических показателях, об ответственности за ненадлежащее и неэффективное государственное управление, в результате которого ухудшаются экономические показатели и наносится реальный ущерб экономике страны.

Необходимо правильно осознавать важность и целесообразность конституционной экономической теории, суть которой “проста и бесспорна: принятие государственных решений в материальной сфере должно соответствовать принципам и конкретным нормам действующей конституции страны” [9, с.14].

На наш взгляд, при проведении конституционной реформы необходимо учитывать все важные явления и процессы, направленные на решение важнейших задач будущего. Принятие декларативных норм или юридическая констатация без учета механизмов их воплощения и реализации не имеет смысла. Соответственно, в конституции должны быть закреплены не только основы конституционно-правового статуса личности, система высших органов государственной власти, но также должны иметь место нормы, регламентирующие экономическую основу государства и принципы его дальнейшего развития.

Следует отметить, что в Конституции Республики Таджикистан закреплено равенство всех форм собственности, в том числе и частной, свобода предпринимательской и не запрещенной экономической деятельности, эффективное использование государством земли, ее недр, воды, воздушного пространства, жи-

вотного и растительного мира в интересах народа, но отсутствуют нормы, закрепляющие основы экономической составляющей и управление материально-финансовыми и иными благами и ресурсами во имя благосостояния граждан и процветания общества [1].

Новые вызовы и угрозы, обусловленные глобализационными процессами, требуют от государства иных подходов к решению экономических вопросов. В современных условиях любые государственные решения взаимосвязаны с экономическими факторами и непосредственно влияют друг на друга. При таком раскладе конституционная экономика как научное направление набирает большую популярность.

По мнению В.А.Мау вопросы применения конституционной экономики не могут быть осознаны со всей полнотой, если не будут учтены особенности конкретного исторического процесса и времени, когда такие вопросы поставлены. Поэтому конституционная экономика определяется как “научное направление, изучающее принципы оптимального сочетания экономической целесообразности с достигнутым уровнем конституционного развития, отраженным в нормах конституционного права, регламентирующих экономическую и политическую деятельность в государстве” [10, с.21].

Конституционная экономика также характеризуется как междотраслевые знания о том, в какой мере конституционные нормы и принципы влияют на принятие органами государственной власти важнейших экономических решений. Это могут быть законы о бюджете, налогах, способах преодоления экономических кризисов и т.д.

В Таджикистане, на наш взгляд, настало время для разработки научно разработанной концепции, вбирающей в себя достижения конституционной экономики, направленной на развитие финансовой и материальной составляющих государства и рост благосостояния граждан.

Список использованной литературы:

1. Конституция Республики Таджикистан от 06.11.1994 (в редакции референдума от 26.09.1999г., от 22.06.2003 г., от 22.05.2016г.). – Душанбе: Ирфон, 2016, 64с.
2. Декларация государственной независимости Таджикской Советской Социалистической Республики // Принята на второй сессии Верховного Совета Таджикской Советской Социалистической Республики от 24.08.1990 года.// https://president.tj/tajikistan/proclamation_of_state_independence
3. Конституция (основной закон) Таджикской Советской Социалистической Республики от 14.04.1978 года.// <https://www.prilib.ru/item/1416052>
4. Баренбойм П., Гаджиев Г., Лафитский В., Мау В. Конституционная экономика. – М., 2005. – 329с.
5. Бондарь Н.С. Экономический конституционализм России: очерки теории и практики. – М., НОРМА ИНФРА-М, 2017. – 268с.
6. Чиркин В.Е. О терминах “экономическая конституция” и “конституционная экономика”// Конституционное и муниципальное право. 2016. № 3, С.12-13.
7. Бондарь Н.С. Там же.
8. Сергеев А.М. Методологические основы и концептуальные положения конституционной экономики // Российский юридический журнал. 2014. № 3. С.8-9
9. Конституционная экономика и рациональность в конституционном праве // Ежегодник конституционной экономики, 2018 / Ответственные редакторы С.А.Авакян, П.Д.Баренбойм, В.В.Комарова. Составитель П.Д.Баренбойм. – М.: ЛУМ, 2018.- С.14.
10. Мау В.А. Конституционная экономика и история // Законодательство и экономика, 2003, № 12. – С.21-22.

Muhammadrasul UMMATOV,
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti
Maxsus-kasbiy fanlar kafedrası professori,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori(PhD), professor

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARINING TAHLILI

Annotatsiya: mazkur maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlashning normativ-huquqiy asoslari milliy qonunchilik va zamonaviy huquqiy yondashuvlar nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Jamoat xavfsizligi sohasini tartibga soluvchi Konstitutsiya, qonunlar hamda qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, sohadagi huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari, vakolatli davlat organlarining huquqiy maqomi va o'zaro hamkorlik mexanizmlari tahlil qilingan. Amaldagi qonunchilikda mavjud ayrim muammolar aniqlanib, jamoat xavfsizligini ta'minlashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga doir ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *jamoat xavfsizligi, normativ-huquqiy asoslar, huquqiy tartibga solish, Konstitutsiya, qonunchilik, davlat organlari, huquqiy mexanizm, milliy xavfsizlik, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, profilaktika.*

Аннотация: в статье проведён комплексный анализ нормативно-правовых основ обеспечения общественной безопасности в Республике Узбекистан. Рассмотрены роль Конституции, законов и подзаконных нормативных актов в регулировании общественных отношений в данной сфере. Особое внимание уделено особенностям правового регулирования, правовому статусу уполномоченных государственных органов и механизмам их взаимодействия. Выявлены отдельные проблемы действующего законодательства и предложены научно обоснованные рекомендации по совершенствованию правового механизма обеспечения общественной безопасности.

Ключевые слова: *общественная безопасность, нормативно-правовые основы, правовое регулирование, Конституция, законодательство, государственные органы, правовой механизм, национальная безопасность, правоохранительные органы, профилактика.*

Annotation: this article provides a comprehensive analysis of the legal and regulatory framework governing public safety in the Republic of Uzbekistan. It examines the role of the Constitution, laws, and subordinate legal acts in regulating public safety relations. The study highlights the specific features of legal regulation, the legal status of competent public authorities, and the mechanisms of their institutional cooperation. It also identifies shortcomings in the current legal framework and offers scientifically grounded recommendations for improving the legal mechanisms of ensuring public safety in accordance with modern challenges and international standards.

Key words: *public safety, legal and regulatory framework, legal regulation, Constitution, legislation, public authorities.*

Har qanday ijtimoiy-huquqiy institutning samarali faoliyati qat'iy huquqiy zamin va tizimli tartibga solish mexanizmlari bilan bog'liq. Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasi ham bundan mustasno emas. O'zbekiston Respublikasida ushbu sohaning normativ-huquqiy asoslari ko'p qatlamli, iyerarxik tuzilishga ega bo'lib, xalqaro huquq normalaridan tortib, idoraviy normativ hujjatlargaacha bo'lgan keng spektrni qamrab oladi. *Konstitutsiyaviy tamoyillar* (shaxs huquq va erkinliklarining oliy qadriyat sifatida e'tirof etilishi[1]), *xalqaro huquqiy standartlar* va *milliy qonunchilik* sintezidan iborat ushbu kompleks huquqiy maydon jamoat xavfsizligini ta'minlash davlat siyosatining huquqiy quroli hisoblanadi.

Nazariy-metodologik jihatdan jamoat xavfsizligini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tizimini o'rganishda S.S.Alekseyev tomonidan ishlab chiqilgan *huquqiy tartibga solishning tarmoqli-iyerarxik konsepsiyasi* metodologik asos vazifasini o'taydi[2]. Ushbu yondashuvga ko'ra, normativ-huquqiy asoslar yuridik kuchi bo'yicha turli darajada bo'lgan hujjatlar majmuidan iborat bo'lib, yuqori pog'onadagi normalar quyi pog'onadagilarga nisbatan ustuvorlikka ega bo'ladi. Huquq normalarining bunday

iyerarxik bog'liqligi jamoat xavfsizligi sohasida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi, zero mazkur soha murakkab, ko'p jihatli ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Eng avvalo **xalqaro-huquqiy asoslar** tahlil etilishi maqsadga muvofiq. Jamoat xavfsizligini ta'minlashning normativ-huquqiy asoslari ierarxiyasidagi eng yuqori pog'onani xalqaro-huquqiy normalar tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida davlatning xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalariga rioya etish majburiyati mustahkamlangan. Bu sohadagi muhim universal hujjatlar qatoriga quyidagilar kiradi:

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948) har bir insonning hayoti, erkinligi va shaxsiy daxlsizligiga bo'lgan huquqini ifodalaydi[3], bu esa jamoat xavfsizligining barcha milliy modellari uchun axloqiy-huquqiy zamindir;

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966) shaxsiy erkinlik, daxlsizlik hamda harakat erkinligi kafolatlarini belgilab, shu bilan birga davlatning jamoat xavfsizligi, tartibi hamda aholining axloqiy salomatligini himoya qilish huquqini ham e'tirof etadi[4];

Shanxay hamkorlik tashkilotining terrorizm,



separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risidagi Konvensiyasi (2001) O'zbekiston uchun regional xavfsizlik kontekstida muhim bo'lgan, mamlakatni mintaqaviy xavf-xatarlardan himoya qilish mexanizmlarini belgilaydi[5];

Terrorizmni moliyaviy ta'minlashga qarshi kurashish to'g'risidagi xalqaro Konvensiya (1999) jamoat xavfsizligiga o'ta jiddiy tahdid hisoblangan transmilliy terrorizmning iqtisodiy asoslariga qarshi kurashish tizimini yaratadi[6]. O'zbekiston 2001-yilda ushbu Konvensiyaga qo'shildi, bu bilan xalqaro standartlarni ichki qonunchilikka implementatsiya qilish yo'nalishida muhim qadam tashlandi.

Belgilangan mezon asosida keyingi navbatda. **Konstitutsiyaviy asoslar** o'rganilishi lozim. Milliy huquqiy tizimning poydevori sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jamoat xavfsizligini ta'minlashning fundamental tamoyillarini mustahkamlaydi. 2023-yil 1-may referendumida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya shaxs huquq va erkinliklarini davlat faoliyatining oliy maqsadi sifatida belgiladi. Xususan, 71-moddada O'zbekistonning konstitutsiyaviy tuzumiga, suverenitetiga, hududiy yaxlitligiga va xavfsizligiga qarshi chiquvchi, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi siyosiy partiyalar hamda harbiylashtirilgan birlashmalarning faoliyati ta'qiqlanadi [7]. Mazkur konstitutsiyaviy qoida jamoat xavfsizligini ta'minlashning bevosita yuridik kafolati sifatida xizmat qiladi.

Shu bilan birga, 2-moddada davlat xalq irodasini ifodalab, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldidagi mas'uliyati belgilangan, 19-moddada esa davlat

va jamiyatning oliy qadriyati inson, uning huquq va erkinliklari, qadr-qimmati ekanligi e'tirof etilgan[8]. Bu konstitutsiyaviy qoidalar jamoat xavfsizligini ta'minlashning negizini shakllantiradi, ya'ni sohaning markaziy o'ringa insonni qo'yadi va davlat institutlarini unga xizmat qilish tamoyiliga bo'ysundiradi.

3. Konseptual-strategik hujjatlar. Konstitutsiyaviy asoslar zahiriga qurilgan ikkinchi normativ-huquqiy qatlamni davlat siyosatining strategik yo'nalishlarini belgilovchi konseptual hujjatlar tashkil etadi. Ushbu qatlam jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida rivojlanish vektorini belgilab beradi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslariga oid bo'lgan qonun hujjatlari qatorida O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi (2014-yil 5-may), "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi (2014-yil 14-may), "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi (2014-yil 25-sentyabr), "Elektron hukumat to'g'risida"gi (2015-yil 9-dekabr), "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi (2016-yil 16-sentyabr), "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi (2017-yil 11-sentyabr), "O'zbekiston Respublikasi davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi (2018-yil 5-aprel), "O'zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi (2020-yil 18-noyabr) va boshqa qonunlarini kiritish kerak.

Mazkur qonunlar bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoni muhim konseptual ahamiyatga ega, zero u bilan "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi", "2022–2025 yillarda O'zbekiston

Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi" hamda uning amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" bir vaqtning o'zida tasdiqlangan[9]. Mazkur Konsepsiya jamoat xavfsizligi sohasida birinchi marta yagona doktrinal platforma va tizimli huquqiy baza yaratib bergan.

Shuningdek, jamoat xavfsizligi sohasidagi davlat siyosatining strategik yo'nalishlari 2023-yil 11-sentyabrda PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida o'z aksini topgan bo'lib, uning 7 ustuvor yo'nalishidan biri aynan jamoat xavfsizligini mustahkamlashga bag'ishlangan[10]. Oldingi strategik hujjatlar 2017-yilgi "Harakatlar strategiyasi"[11] va 2022-yilgi "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"[12] jamoat xavfsizligi sohasidagi islohotlarning bosqichma-bosqich rivojlanishini ta'minlab, bu yo'nalishdagi konseptual uzluksizlikni shakllantirgan. Shu tariqa, mazkur hujjatlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik sohaning huquqiy-siyosiy vektori izchilligini ko'rsatadi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashning normativ-huquqiy bazasidagi uchinchi, eng keng qamrovli qatlamni **sohaviy qonunlar** tashkil etadi. Ushbu qonunlarni tartibga solish predmetiga ko'ra bir necha guruhlariga tasniflash mumkin, bu ular orasidagi funksional bog'liqlikni yaqqol ko'rish imkonini beradi:

1-jadval. Jamoat xavfsizligini ta'minlashning sohaviy qonunchiligi tasnifi

Tartibga solish guruhi	Qonunlar
I. Asosiy huquq-tartibot	"Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi (2014); "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi (2016); "Milliy gvardiya to'g'risida"gi (2018); "Prokuratura to'g'risida"gi (2021); "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi (2012)
II. Transport xavfsizligi	"Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi (2013); "Yo'l harakati to'g'risida"gi (2024); "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi (2007); "Maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning tranziti to'g'risida"gi (2001)
III. Ekologik va texnogen	"Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi (1999, 2022); "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi (2009); "Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida"gi (2000); "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi (1992); "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi (2000)
IV. Ekstremal tahdidlarga qarshi	"Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi (2000); "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi (2018); "Narkotik moddalar va psixotrop vositalar to'g'risida"gi (1999); "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi (2017)
V. Sanitariya-epidemiologik	"Davlat sanitariya nazorati to'g'risida"gi (1992); "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi (2015); "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi (1996)
VI. Ijtimoiy va tashkiliy	"Voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbuzarliklarining profilaktikasi to'g'risida"gi (2010); "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi (2018); "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi (2013); "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi (2019)

Taqdim etilgan tizimlashtiruvdan ko'rinib turibdiki, jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan sohaviy qonunlar yigirmadan ortiq bo'lib, ular turli jihatlardan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi 2014-yilgi O'RQ-371-sonli Qonun[13] profilaktik choralarni qonunchilik darajasida birinchi marta kompleks ravishda tartibga solgan; "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi 2016-yilgi O'RQ-407-sonli Qonun[14] esa jamoat xavfsizligini ta'minlashning asosiy subyekti bo'lgan ichki ishlar organlarining vakolatlari va vazifalarini belgilagan. Yo'l harakati sohasidagi huquqbuzarliklarning statistik yuqoriligi, ya'ni 2023-yilda 16 milliondan ortiq qoidabuzarlik qayd etilganligi[15]ni hisobga olib, 2013-yilgi "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi Qonun[16] va 2024-yildagi yangi "Yo'l harakati to'g'risida"gi Qonun bu sohani dolzarb tartibga solmoqda.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashning normativ-huquqiy asoslari iyerarxiyasidagi muhim element **kodifikatsiyalashgan normalar**, ya'ni O'zbekiston Respublikasining kodekslardagi javobgarlik normalari hisoblanadi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning

180–185-moddalari jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar (mayda bezorilik, sudga hurmatsizlik, qurol bilan bog'liq huquqbuzarliklar, diniy va milliy adovatni targ'ib qilish va shu kabilar) uchun sanksiyalarni belgilaydi[17]. Ushbu ma'muriy-delikt normalari jamoat xavfsizligining kundalik, ijtimoiy xavfi kam bo'lgan tahdidlarga qarshi himoya qilish mexanizmini ta'minlaydi.

Jinoyat kodeksi esa jamoat xavfsizligiga qarshi og'ir va o'ta og'ir tajovuzlar uchun javobgarlikni belgilaydi. Xususan, 242–244, 246–247-moddalar jinoiy uyushma tashkil etish, diniy ekstremistik tashkilot tashkil etish, ommaviy tartibsizliklar va terrorchilik harakatlari kabi jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutadi[18]. "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi (2000) va "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi (2018) qonunlar [19] bilan birlashib, ular jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan eng xavfli qilmishlarga qarshi kompleks huquqiy to'siq tizimini yaratadi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashning normativ-huquqiy bazasini boyituvchi yana bir muhim qatlam **qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar** bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va

farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi hujjatlari hisoblanadi. 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-son Farmon ichki ishlar organlari tizimini tubdan isloh qilishni va uni “*xalq manfaatlariga xizmat qilish*” tamoyili asosiga qurishni boshlab berdi [20]. 2021-yil 26-martdagi PF-6196-son Farmon bilan Ichki ishlar vazirligi tarkibida Jamoat xavfsizligi departamenti tashkil etildi, bu esa sohani tashkiliy-huquqiy jihatdan mustahkamlashda hal qiluvchi qadam bo'ldi[21].

Kasbiy kadrlarni tayyorlash yo'nalishida 2021-yil 15-apreldagi PQ-5077-son Qaror[22] bilan O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti faoliyati va malakali kadrlarni tayyorlash tizimi zamonaviy talablarga moslashtirildi. Jamoat joylari bilan bog'liq huquqiy tartibga solish yo'nalishida 2024-yil 11-apreldagi PQ-155-son Qaror[23] madaniyat, savdo va xizmat ko'rsatish sohasi obyektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlashning yangi mexanizmlarini joriy etdi, xususan, obyektlarni xavfsizlik kategoriyalariga ajratish tamoyili o'rnatildi.

Mahalla darajasidagi profilaktika tizimini takomillashtirish sohasida Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 1-dekabrda 754-son Qarori[24] muhim innovatsiya “*mahalla yettligi*” konsepsiyasini tasdiqlan shiga xizmat qilgan. Unga ko'ra, profilaktika inspektori, mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, ijtimoiy xodim va soliq inspektori birgalikda hududiy xavfsizlikni ta'minlash vazifasini bajaradi. Bu hujjat ijtimoiy profilaktika modelini mahalla darajasiga quyi tushirishning amaliy mexanizmini o'rnatdi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida jamoat xavfsizligini ta'minlovchi normativ-huquqiy asoslarning yaxlit iyerarxik tuzilmasini shakllantirish mumkin.

2-jadval. Jamoat xavfsizligini ta'minlovchi normativ-huquqiy asoslarning ierarxik tuzilmasi

Nº	Qatlam	Hujjatlar	Yuridik kuch
I	<i>Xalqaro huquq</i>	Inson huquqlari deklaratsiyasi, Xalqaro paktlar, ShHT Konvensiyalari	Milliy qonunlardan ustun (ratifikatsiya qilinganida)
II	<i>Konstitutsiyaviy normalar</i>	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2,19,25,30,71-moddalar)	Eng yuqori milliy yuridik kuch
III	<i>Konseptual-strategik</i>	PF-27-son Farmon (2021), “O'zbekiston – 2030” strategiyasi, sohaviy strategiyalar	Davlat siyosatining vektori
IV	<i>Sohaviy qonunlar</i>	20+ sohaviy qonun (2014 yilgi Profilaktika qonuni, IIO to'g'risidagi qonun va b.)	Bevosita huquqiy tartibga solish
V	<i>Kodifikatsiyalashgan</i>	MJtK (180–185-moddalar), Jinoyat kodeksi (242–247-moddalar), JPK	Huquqiy javobgarlik mexanizmi
VI	<i>Podzakonniy akti</i>	Prezident farmonlari va qarorlari (PF-5005, PF-6196, PQ-155 va b.), Vazirlar Mahkamasining qarorlari (754-son va b.)	Ijro mexanizmini ishlab chiqish
VII	<i>Idoraviy hujjatlar</i>	IIV, FVV, Milliy gvardiya va boshqa vazirlik-idoralarning normativ buyruqlari, nizomlari, yo'riqnomalari	Subyektlar faoliyatining detalizatsiyasi

Shu bilan birga amalga oshirilgan amaldagi huquqiy bazaning bir qator tizimli kamchiliklarini aniqlash imkonini berdi. Birinchi muhim muammo – *normativ hujjatlar sonining ko'pligi va ular o'rtasidagi muvofiqlik yetishmasligidir*. Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash va probatsiya sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi 200 dan ortiq turli normativ hujjatlar mavjud bo'lib, ularning ayrim normalari ma'nan eskirgan, bo'shliqlar va ziddiyatlarga ega [25].

Ikkinchi muhim muammo – *sohaviy “parokandalik” fenomenidir*. Jamoat xavfsizligini ta'minlovchi har bir organ o'z idorasi tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat doirasida faoliyat yuritadi, bu holat ayrim hollarda subyektlararo hamkorlikda nomutanosibliklarga, fuqarolarning e'tirozlari holatlarida esa organlar

xodimlarining harakatlariga huquqiy baho berishda chalkashliklarga olib keladi [26]. O'.M.Atajanov bu masalani maxsus o'rganib, jamoat xavfsizligi sohasida yagona huquqiy akt qabul qilish orqali soha qonunchiligini unifikatsiya qilish zarurligini asoslab bergan[27].

Uchinchi muammo – *ayrim normativ-huquqiy hujjatlarning ma'nan eskirganligi va yangi hujjatlarga mutanosib emasligidir*. Xususan, 1997-yildagi “Milliy xavfsizlik konsepsiyasi to'g'risida”gi Qonuni[28] ma'nan eskirgan va 2021-yilgi Konsepsiya bilan mazmunan mutanosib emas. O'z davrida asosiy normativ hujjat vazifasini o'tagan ushbu qonun hozirgi zamon tahdidlariga, ya'ni kiberxavfsizlik, gibrid xavflar, tizimli dezinformatsiya kabi xavflarga aks ta'sirni tartibga solmaydi va o'z vaqtida javob berilishiga xizmat qilmaydi. Bu esa qonunning yangi tahririni qabul

qilish yoki uni jamoat xavfsizligi masalalari bo'yicha alohida qonun bilan to'ldirish zarurligini taqozo etadi.

To'rtinchi muhim muammo – *jamoat xavfsizligi to'g'risida yagona qonunning mavjud emasligidir*. 2022–2025 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasida ushbu soha bo'yicha yagona qonun loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish orqali 200 dan ortiq normativ-huquqiy va idoraviy hujjatlarning normalari va qoidalarini birlashtirish vazifasi belgilab qo'yilgan edi[29]. Bu masala bo'yicha ayrim huquqshunoslar, jumladan, N.Kuldashev davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini jamoat xavfsizligi sohasiga tatbiq etish orqali xususiy subyektlarni ham jalb qilish mumkinligini ta'kidlashadi[30].

Jamoat xavfsizligi sohasidagi normativ-huquqiy faollikning miqdoriy ko'rsatkichlari tahlili sohani tartibga solishdagi ustuvorliklarni aniqlashga imkon berdi.

3-jadval. Jamoat xavfsizligiga oid normativ-huquqiy hujjatlar sonining dinamikasi[31]

Hujjat turi	2017–2021 yy.	2022–2025 yy.
Prezident farmonlari (jamoat xavfsizligiga oid)	≈ 8	≈ 15
Prezident qarorlari	≈ 25	≈ 40
Vazirlar Mahkamasi qarorlari	≈ 60	≈ 90
Yangi qabul qilingan yoki o'zgartirilgan qonunlar	≈ 10	≈ 15
Idoraviy normativ hujjatlar (IIV)	100+	150+

Jadvaldagi ma'lumotlar jamoat xavfsizligi sohasidagi normativ-huquqiy faollikning so'nggi besh yil ichida ikki barobarga yaqin ortganini ko'rsatadi. Bu holat, bir tomondan, islohotlarning intensivlashganini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, hujjatlar ko'pligi va ularni muvofiqlashtirish zaruratini taqozo etadi.

O'tkazilgan tahlil natijasida jamoat xavfsizligini ta'minlashning normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar shakllantiriladi:

- birinchidan, “Jamoat xavfsizligi to'g'risida”gi alohida kodeks loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish maqsadga muvofiq. Ushbu kodeks soha bo'yicha 200 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlarning asosiy normalarini tizimlashtirib, yagona tushunchaviy apparatni o'rnatishi, subyektlar vakolatlari chegarasini aniqlashtirishi va amaliy qo'llash mexanizmlarini belgilab berishi lozim;

- ikkinchidan, 1997-yilgi “Milliy xavfsizlik konsepsiyasi to'g'risida”gi Qonunni zamonaviy talablarga moslashtirish unga zamonaviy raqamli, kiber, gibril va ekstremizm jihatlarini aks ettiruvchi normalarni kiritish lozim. Muqobil tarzda 2021-yilgi Konsepsiya asosida yangi tahrirdagi qonun qabul qilinishi mumkin;

- uchinchidan, jamoat xavfsizligi sohasida xalqaro standartlarni implementatsiya qilishni tizimli ravishda davom ettirish, xususan, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari 16-maqсад (tinchlik, adolat va kuchli institutlar) va zamonaviy kiberxavfsizlik xalqaro standartlari (Budapesht Konvensiyasi va b.) bilan bog'liq qoidalarini milliy huquqiy tizimga implementatsiya qilish;

- to'rtinchidan, idoraviy normativ hujjatlar sonini optimallashtirish, ularni birlashtirish va yuridik texnika talablariga moslashtirish. Ayniqsa, eskirgan yoki amaliyotda qo'llanilmaydigan normalarni bekor qilish kerak;

- beshinchidan, mahalla darajasidagi profilaktika va hamkorlik mexanizmlarini 754-son Qaror ruhida

yanada mukammallashtirish, “mahalla yettiligi”ning vakolatlari va funksiyalarini batafsilroq ishlab chiqish, uni Sh.N.Nimatovning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan shaffof hisobdorlik tizimi bilan uzviy bog'lash lozim [32].

Umumlashtirilgan holda aytish mumkinki, O'zbekistonda jamoat xavfsizligini ta'minlashning normativ-huquqiy asoslari hozirgi paytda sezilarli o'sish bilan rivojlanib, o'zining huquqiy asoslarining yagona konstruksiyasini shakllantirgan. Shu bilan birga, soha huquqiy tartibga solinishi kodifikatsiyalash, unifikatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirish yo'nalishida yangi sifat bosqichini kutmoqda. Bu esa ushbu rivojlanish bosqichlarini xronologik va funksional jihatlardan batafsil tadqiq etilishini taqozo etadi.

Demak, jamoat xavfsizligini ta'minlash davlatning eng muhim konstitutsiyaviy vazifalaridan biri bo'lib, u shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini turli ichki va tashqi tahdidlardan muhofaza qilishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy va institutsional chora-tadbirlar tizimini qamrab oladi. Mazkur sohaning samaradorligi, eng avvalo, uni tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazaning mukammalligi, tizimliliigi va zamonaviy xavf-xatarlarga moslashganligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asosini, avvalo, Konstitutsiya tashkil etadi. Konstitutsiyada insonning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati va xavfsizligi oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan bo'lib, davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida inson huquq va erkinliklarini muhofaza qilish belgilangan. Ushbu konstitutsiyaviy qoidalar jamoat xavfsizligi sohasidagi barcha normativ-huquqiy hujjatlar uchun huquqiy poydevor vazifasini bajaradi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi maxsus qonunchilik tizimida “Jamoat xavfsizligi to'g'risida”gi Qonun alohida ahamiyatga ega. Unda jamoat xavfsizligining asosiy prinsiplari, subyektlari, ularning vakolatlari, davlat



organlarining o'zaro hamkorligi hamda fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirok etish mexanizmlari belgilangan. Mazkur qonun jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishning huquqiy asosini shakllantiradi.

Shu bilan birga, mazkur sohadagi huquqiy munosabatlar "Ichki ishlar organlari to'g'risida", "Terrorizmga qarshi kurashish to'g'risida", "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida", "Favqulodda holat to'g'risida", "Mudofaa to'g'risida", "Milliy gvardiya to'g'risida", "Profilaktika to'g'risida"gi qonunlar hamda boshqa sohaviy normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Ushbu hujjatlar jamoat xavfsizligini ta'minlashning alohida yo'nalishlari bo'yicha huquqiy mexanizmlarni belgilab beradi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashning normativ-huquqiy tizimida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon

va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari ham muhim o'rin tutadi. Ular davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, sohani institutsional takomillashtirish, vakolatli organlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, so'nggi yillarda qabul qilingan strategik dasturlar jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini raqamlashtirish, profilaktik faoliyatni kuchaytirish va aholi bilan muloqotning samarali shakllarini rivojlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Normativ-huquqiy asoslarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, jamoat xavfsizligi sohasida keng qamrovli huquqiy baza shakllangan bo'lsa-da, ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, ayrim huquqiy tushunchalarning turlicha talqin qilinishi, vakolatlar taqsimotidagi ayrim takrorlanishlar, sohaviy qonunlar o'rtasidagi muvofiqlashtirishning yetarli darajada emasligi hamda raqamli xavfsizlik, kiberjinoyatchilik va sun'iy intellekt bilan bog'liq yangi munosabatlarni huquqiy tartibga solishda muayyan bo'shliqlar mavjud.

Shu munosabat bilan jamoat xavfsizligi sohasidagi qonunchilikni tizimlashtirish, huquqiy kategoriyalarni yagona yondashuv asosida aniqlashtirish, vakolatli subyektlar o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va ilg'or xorijiy tajribani milliy qonunchilikka implementatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, jamoat xavfsizligini ta'minlashning normativ-huquqiy asoslari mamlakatda barqarorlik, qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlashning huquqiy kafolati hisoblanadi. Ularning muntazam takomillashtirib borilishi zamonaviy tahdidlarga munosib javob berish, davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirish hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishning muhim sharti hisoblanadi.

IQTIBOSLAR/CHOCKI/REFERENCES:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси (2023 йил 1 май референдумида қабул қилинган янги таҳрир-да). – Т.: Адолат, 2023. – 19, 25, 30-моддалар.
2. Алексеев С.С. Общая теория права. В 2 т. Т. II. – М.: Юрид. лит., 1982. – С. 212–215.
3. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси. БМТ Бош Ассамблеясининг 1948 йил 10 декабрдаги 217 А (III) Резолюцияси. 3-модда // БМТ расмий ҳужжатлари. – un.org.
4. Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт. БМТ, 1966. 9, 12-моддалар // Ўзбекистон Республи-каси 1995 йил 31 августда ратификация қилган (№ 136-I).
5. Шанхай ҳамкорлик ташкилотига аъзо давлатларнинг терроризм, сепаратизм ва экстремизмга қарши кура-шиш бўйича Конвенцияси. Шанхай, 2001 йил 15 июн // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси. – 2004. – № 1–2.
6. Терроризмни молиявий таъминлашга қарши курашиш тўғрисидаги халқаро Конвенция. Нью-Йорк, 1999 йил 9 декабр. Ўзбекистон 2001 йил 30 августда қўшилган.
7. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси (2023 йил 1 май). – Т.: Адолат, 2023. – 71-модда.
8. Ўша манба. – 2, 19-моддалар.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 ноябрдаги "Ўзбекистон Республикаси жамоат хавф-сизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-27-сон Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. – Lex.uz.

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “Ўзбекистон – 2030» стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. – Lex.uz.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. – Lex.uz.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. – Lex.uz.
13. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 14 майдаги “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги ЎРҚ-371-сонли Қонуни // Lex.uz.
14. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 16 сентябрдаги “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги ЎРҚ-407-сонли Қонуни // Lex.uz.
15. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги расмий ҳисоботи. 2024 йил жиноятчилик статистикаси // iiv.uz.
16. Ўзбекистон Республикасининг 2013 йил 10 апрелдаги “Йўл ҳаракати хавфсизлиги тўғрисида”ги ЎРҚ-348-сонли Қонуни // Lex.uz.
17. Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси (янги таҳрир) // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 22.11.2024 й., 03/24/1004/0948-сон. 180–185-моддалар.
18. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. – Т.: Адолат, 2024. – 242–244, 246–247-моддалар.
19. Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 15 декабрдаги “Терроризмга қарши кураш тўғрисида”ги 167-II-сонли Қонуни; 2018 йил 30 июлдаги “Экстремизмга қарши курашиш тўғрисида”ги ЎРҚ-489-сонли Қонуни // Lex.uz.
20. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 10 апрелдаги “Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш... чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5005-сон Фармони // Lex.uz.
21. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6196-сон Фармони // Lex.uz.
22. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 15 апрелдаги “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасида профессионал кадрларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5077-сон Қарори // Lex.uz.
23. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 11 апрелдаги “Маданият, савдо ва хизмат кўрсатиш соҳаси объектларида жамоат хавфсизлигини таъминлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-155-сон Қарори // Lex.uz.
24. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2025 йил 1 декабрдаги “Жамоат тартибини сақлаш, жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасидаги Ҳукумат қарорларини тизимлаштириш тўғрисида”ги 754-сон қарори // Lex.uz.
25. Қадамович Б., Хасанов А. Жамоат хавфсизлиги департаментининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тизимини такомиллаштириш йўналишлари // Central Asian Journal of Multidisciplinary Research. – 2022. – Vol. 2, Iss. 2. – Б. 517.
26. Маҳмудов З. Жамоат хавфсизлиги концепцияси мамлакатда тинч ва осойишта ҳаётни таъминлаш гарови сифатида // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies. – 2022. – Vol. 2, Iss. 1. – Б. 244.
27. Атажанов Ў.М. Жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги қонун ҳужжатларини такомиллаштириш масалалари: юрид. фан. доктори ... дис. автореф. – Т.: ТДЮУ, 2020. – Б. 24.
28. Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 29 августдаги “Ўзбекистон Республикаси миллий хавфсизлик концепцияси тўғрисида”ги 467-I-сонли Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси. – 1997. – № 9. – 230-модда.
29. “2022–2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида жамоат хавфсизлигини таъминлаш тизимини ривожлантириш стратегияси”. ПФ-27-сон Фармоннинг 2-илоvasи // Lex.uz.
30. Кулдашев Н. Ўзбекистонда жамоат хавфсизлиги соҳасида давлат-хусусий шерикликни ташкил этиш масалалари // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies. – 2022. – Vol. 2, Iss. 3. – Б. 136.
31. Lex.uz маълумотлар базаси асосида тахлилий маълумотлар
32. Ниматов Ш.Н. Ўзбекистон Республикасида жамоат хавфсизлигини таъминлашда профилактика инспекторлари фаолияти самарадорлиги ва шаффоф ҳисобдорлигининг ҳуқуқий-ташкилий асослари // Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – № 58.1. – С. 236–253.

Zafarbek BOBOQULOV,
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Malaka oshirish instituti bosh inspektori

KOREYA RESPUBLIKASI MILLIY POLITSIYA AGENTLIGI XODIMLARINING KASBIY MADANIYATI VA XIZMAT INTIZOMINI TA'MINLASH

“Qonun xalqqa xizmat qilishi, amaldor esa ezigulik namunasi bo‘lishi kerak”

Annotatsiya: maqolada Koreya Respublikasi Milliy politsiya agentligi xodimlarining kasbiy madaniyati va xizmat intizomini ta'minlashning huquqiy asoslari tahlil qilingan. Xulq-atvor kodeksining asosiy qoidalari yoritilib, uning kasbiy etika, korrupsiyaning oldini olish va xizmat intizomini mustahkamlashdagi ahamiyati baholangan. Shuningdek, Koreya Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari tizimida qo'llanilayotgan yondashuvlarning ayrim jihatlari qiyosiy-huquqiy nuqtayi nazardan ko'rib chiqilgan.

Аннотация: в статье проанализированы правовые основы обеспечения профессиональной культуры и служебной дисциплины сотрудников Национального полицейского агентства Республики Корея. Рассмотрены основные положения Кодекса поведения, раскрыто его значение в укреплении служебной этики, дисциплины и предупреждении коррупции. Кроме того, в сравнительно-правовом аспекте рассмотрены отдельные особенности подходов, применяемых в деятельности органов внутренних дел Республики Корея и Республики Узбекистан.

Annotation: this article analyzes the legal foundations for ensuring the professional culture and service discipline of officers of the National Police Agency of the Republic of Korea. It examines the main provisions of the Code of Conduct and highlights its role in strengthening professional ethics, service discipline, and corruption prevention. In addition, the article comparatively examines selected approaches applied in the activities of the law enforcement agencies of the Republic of Korea and the Republic of Uzbekistan.

Bugungi kunda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati davlat boshqaruvining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Globallashuv, raqamli texnologiyalar rivojlanishi, transmilliy jinoyatchilikning murakkablashuvi hamda fuqarolarning davlat organlari faoliyatiga nisbatan talablarining ortib borishi politsiya tizimini yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. Zamonaviy demokratik davlatlarda politsiya faoliyati endilikda faqat jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organ sifatida emas, balki fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi, jamiyat bilan ochiq muloqot olib boruvchi hamda davlat hokimiyatining eng yaqin vakili sifatida qaralmoqda.

Mazkur sharoitda politsiya tizimi faoliyatining samaradorligi nafaqat moddiy-texnik ta'minot yoki zamonaviy texnologiyalar bilan, balki xodimlarning

kasbiy madaniyati, xizmat intizomi, axloqiy fazilatlarini va boshqaruv madaniyati bilan ham belgilanadi. Ayniqsa, xizmat vakolatlaridan qonuniy foydalanish, fuqarolar bilan muloqot madaniyati, inson huquqlariga hurmat, korrupsiyaga muvazirlik hamda rahbarlarning shaxsiy namunalari politsiya organlariga nisbatan jamoatchilik ishonchini shakllantiruvchi asosiy omillar hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, Koreya Respublikasi Milliy politsiya agentligi (Korean National Police Agency – KNPA) dunyodagi eng samarali va zamonaviy huquqni muhofaza qiluvchi organlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Mamlakatda politsiya faoliyati professionallik, halollik, ochiqlik, shaffoflik va fuqarolarga xizmat qilish tamoyillari asosida tashkil etilgan. “Koreya Respublikasi Milliy politsiya agentligi xodimlarining xulq-atvor kodeksi”¹ politsiya xodimlarining xizmat faoliyatida amal qilishi lozim bo'lgan axloqiy va kasbiy me'yorlarni belgilab beruvchi muhim normativ hujjat hisoblanadi. Ushbu kodeks politsiya tizimida xizmat intizomini mustahkamlash, xizmat vazifalarini adolatli va xolis bajarishni ta'minlash, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish hamda davlat xizmatining yuksak axloqiy standartlarini shakllantirishga qaratilgan.

Kodeks 6 ta bob va 24 ta moddadan iborat bo'lib, har bir bob politsiya xodimlarining xizmat faoliyatining muayyan jihatlari tartibga soladi va ular birgalikda



¹ Code of Conduct for National Police Agency Employees (Presidential Decree No. 28543, as amended) / National Law Information Center. Ministry of Government Legislation, Republic of Korea. – URL: <http://www.law.go.kr>.

politsiya xizmatining axloqiy va huquqiy asoslarini belgilaydi. Xususan:

Birinchi bob **“Umumiy qoidalar”** dan iborat bo'lib, unda kodeksning asosiy maqsadi, kodeksda qo'llaniladigan asosiy tushunchalarning mazmuni hamda uning qo'llanilish doirasi belgilangan.

Mazkur bob kodeksning asosiy huquqiy poydevorini tashkil etadi va unda kodeksning maqsadi, vazifalari, qo'llanilish doirasi hamda asosiy tushunchalar belgilab berilgan. Shu jihatdan mazkur bob kodeksning boshqa barcha normalarini to'g'ri tushunish va amaliyotda qo'llash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kodeksning asosiy maqsadi politsiya xodimlarining kasbiy va axloqiy xulq-atvor me'yorlarini belgilash, xizmat intizomini mustahkamlash, korrupsiya hamda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va jamoatchilik ishonchini oshirishdan iborat. Shuningdek, politsiya xodimlarining davlat xizmatidagi o'rni va mas'uliyati hamda ular faoliyatida qonuniylik, adolat, xolislik va halollik tamoyillariga rioya etish zarurligi ta'kidlanadi.

Mazkur qoidalarda **“davlat xizmatchisi”**, **“xizmat vazifalari bilan bog'liq shaxs”**, **“moddiy qiymatliklar”** va **“politsiya bilan bog'liq tashkilotlar”** kabi asosiy tushunchalarga ta'rif berilib, kodeks talablarini yagona talqin qilish ta'minlanadi.

Kodeks Milliy politsiya agentligi tizimidagi barcha davlat xizmatchilariga tatbiq etiladi hamda xizmat faoliyatida yagona axloqiy standartlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Shuningdek, kodeks talablarini tushuntirish, xodimlarni axloqiy jihatdan tarbiyalash va xizmat intizomini mustahkamlash bo'yicha tashkiliy choralar ham nazarda tutilgan.

“Umumiy qoidalar” kodeksning huquqiy va nazariy asosini belgilab, politsiya xodimlarida yuksak kasbiy madaniyat va xizmat intizomini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi bob **“Xizmat vazifalarini adolatli bajarish”** deb nomlanib, unda xizmat vazifalarini vijdonan bajarishga to'sqinlik qiluvchi noqonuniy ko'rsatmalar bilan muomala qilish, tergov va huquqni muhofaza qilish faoliyatida adolatni ta'minlash, har qanday afzallik va kamsitishni istisno etish, byudjet mablag'laridan maqsadsiz foydalanishni taqiqlash, siyosiy bosim va noqonuniy talablarning oldini olish hamda xizmatga qabul qilish jarayoniga noqonuniy aralashuvni taqiqlashga oid qoidalar belgilangan.

“Xizmat vazifalarini adolatli bajarish” politsiya xodimlarining xizmat faoliyatida qonun ustuvorligi, xolislik va adolat tamoyillarini ta'minlashga qaratilgan muhim qism hisoblanadi. Undagi normalar politsiya faoliyatining shaffofligini ta'minlash va jamoatchilik ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Politsiya xodimlari davlat nomidan faoliyat yuritganligi sababli, ularning har bir qarori fuqarolarning huquq va erkinliklariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois xizmat vazifalarini bajarishda faqat qonun talablariga amal qilishi, shaxsiy manfaat, qarindoshlik yoki boshqa subyektiv

omillar ta'siriga berilmasligi lozim.

Kodeksda manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga alohida e'tibor qaratilib, bunday holatlar yuzaga kelganda rahbariyatni xabardor qilish va zarur bo'lsa, qaror qabul qilish jarayonidan chetlashish talabi belgilangan. Shuningdek, xizmat vakolatlaridan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanish, tanish-bilishlarga imtiyoz yaratish yoki ayrim shaxslarga noqonuniy yengillik berish qat'iyon taqiqlanadi.

Noqonuniy ko'rsatmalar yoki siyosiy bosimlarga bo'ysunmaslik ham muhim talablardan biri hisoblanadi. Xodimlar qonunga zid topshiriqlar yuzasidan e'tiroz bildirish va bu haqda vakolatli organlarni xabardor qilish huquqiga ega.

Shuningdek, xizmat faoliyatida oshkorlik, shaffoflik, mas'uliyat va vijdonan yondashish tamoyillariga rioya etish, fuqarolarning huquq va manfaatlarini hurmat qilish zarurligi belgilangan.

Umuman, mazkur bob politsiya xodimlarining adolatli va xolis faoliyat yuritishini ta'minlash, korrupsiya hamda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, xizmat vakolatlarining suiiste'mol qilinishiga yo'l qo'ymaslik va jamoatchilik ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchinchi bob **“Asossiz foyda olishni taqiqlash”** ga bag'ishlangan bo'lib, unda politsiya xodimlarining xizmat mavqeidan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanishiga yo'l qo'ymaslik, vositachilik va noqonuniy manfaatdorlik holatlarini cheklash, xizmat faoliyati davomida olingan ma'lumotlardan foyda ko'rish maqsadida foydalanishni taqiqlash, davlat mulkidan faqat xizmat manfaatlari yo'lida foydalanish hamda pul, sovg'a va boshqa moddiy boyliklarni qabul qilish bilan bog'liq cheklovlar nazarda tutilgan.

“Asossiz foyda olishni taqiqlash” politsiya xodimlarining xizmat vakolatlaridan shaxsiy moddiy yoki boshqa manfaatlar yo'lida foydalanishining oldini olishga qaratilgan bo'lib, davlat xizmatida halollik, xolislik va shaffoflik tamoyillarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Unda politsiya xodimlariga xizmat vazifalari bilan bog'liq shaxslardan pul, sovg'a, xizmat yoki boshqa moddiy manfaatlarni qabul qilish taqiqlanadi. Bunday cheklovlar korrupsiya xavfini kamaytirish va xizmat faoliyatining xolisligini ta'minlashga qaratilgan. Shuningdek, xizmat faoliyati davomida olingan ma'lumotlardan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanish, jumladan ko'chmas mulk, aksiyalar, investitsiyalar yoki virtual aktivlar bilan bog'liq moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Mazkur qoidalar xizmat vakolatlaridan foydalanib ayrim shaxslar yoki tashkilotlarga iqtisodiy afzallik yaratish, vositachilik qilish yoki noqonuniy manfaat ko'zlashni ham taqiqlaydi. Bunday harakatlar korrupsiyaning ko'rinishi sifatida baholanadi.

Kodeks talablariga rioya etilishi doimiy nazorat qilinadi, ularni buzgan xodimlarga nisbatan intizomiy yoki huquqiy choralar qo'llaniladi. Shu bilan birga, korrupsiyaning oldini olish va xizmat faoliyatida shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan nazorat mexanizmlari joriy etilgan.

To'rtinchi bob **“Davlat xizmatining sog'lom axloqiy**



muhitini shakllantirish”ga bag’ishlangan bo’lib, unda ma’ruza, seminar va boshqa tadbirlarda gonorar olish bilan bog’liq cheklovlar, xizmat vazifalari bilan bog’liq shaxslar bilan tuzilgan bitimlar haqida xabar berish majburiyati hamda oilaviy holatga oid ma’lumotlarni belgilangan tartibda ma’lum qilishga doir qoidalar belgilangan.

Koreya Milliy politsiya agentligi xodimlarining xulq-atvor kodeksida muhim o’rin tutuvchi bo’limlardan biri **“Davlat xizmatining sog’lom axloqiy muhitini shakllantirish”** hisoblanadi. Ushbu qoidalar politsiya tizimida yuksak axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish, xizmat faoliyatida halollik va shaffoflikni ta’minlash hamda xodimlarning xizmat va xizmatdan tashqari munosabatlarida yuqori axloqiy me’yorlarga rioya etishini ta’minlashga qaratilgan.

Mazkur qoidalarda politsiya xodimlarining xizmatdan tashqari xulq-atvoriga ham alohida e’tibor qaratilib, ular davlat xizmati obro’siga putur yetkazadigan har qanday harakatlardan tiyilishi lozimligi belgilangan. Bu politsiya tizimiga nisbatan jamoatchilik ishonchini saqlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, xizmat vazifalari bilan bog’liq shaxslar bilan ortiqcha yaqin munosabatlar o’rnatish, ular bilan qimor o’yinlarida ishtirok etish, homiylik yoki moddiy yordam so’rash hamda shaxsiy manfaatlarga xizmat qiluvchi aloqalar o’rnatish taqiqlanadi. Bunday cheklovlar manfaatlarga to’qnashuvi va korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan.

Kodeksda politsiya xodimlarining ma’ruza, seminar

va boshqa tadbirlarda ishtirok etishi ham tartibga solinib, xizmat manfaatlariga zid harakat qilmaslik, maxfiy ma’lumotlarni oshkor etmaslik va davlat xizmati nufuziga putur yetkazuvchi xatti-harakatlarga yo’l qo’ymaslik talabi belgilangan.

Bundan tashqari, xodimlar o’rtasida o’zaro hurmat, xizmat etikasi va sog’lom jamoaviy muhitni shakllantirish, shuningdek, xizmatdan tashqari vaqtda ham munosib xulq-atvorni saqlash zarurligi ta’kidlangan.

Natijada, ushbu qoidalar politsiya organlarida yuksak kasbiy va axloqiy muhitni shakllantirish, xizmat intizomini mustahkamlash hamda fuqarolarning politsiyaga bo’lgan ishonchini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Beshinchi bob **“Qoidabuzarlik holatlarida ta’sir choralari”**ga bag’ishlangan bo’lib, unda ehtimoliy qoidabuzarliklar yuzasidan maslahatlashish tartibi, qoidabuzarliklar to’g’risida xabar berish va ularni ko’rib chiqish, intizomiy javobgarlik choralari qo’llash hamda taqiqlangan sovg’alarni qabul qilish holatlarini aniqlash va ular bo’yicha tegishli choralarni ko’rish masalalari tartibga solingan.

“Qoidabuzarlik holatlarida ta’sir choralari” politsiya xodimlarining kodeks talablariga rioya etilishini ta’minlash, qoidabuzarliklarni o’z vaqtida aniqlash va ularga nisbatan tegishli choralar ko’rish tartibini belgilaydi. Bu xizmat intizomini mustahkamlash va jamoatchilik ishonchini saqlashga xizmat qiladi.

Mazkur qoidalarga ko’ra, politsiya xodimining kodeks



talablarini buzganligi haqida fuqarolar, davlat xizmatchilari yoki boshqa shaxslar vakolatli organlarga yozma yoki elektron shaklda murojaat qilishi mumkin. Kelib tushgan murojaatlar belgilangan tartibda ko'rib chiqilib, xizmat tekshiruvi o'tkaziladi. Shu bilan birga, qoidabuzarlik haqida xabar bergan shaxslarning shaxsi himoya qilinadi va ularga nisbatan tazyiq o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Tekshiruv natijalariga ko'ra, qoidabuzarlik sodir etgan xodimlarga nisbatan ogohlantirish yoki tanbeh berish, intizomiy jazo qo'llash, lavozimidan chetlatish yoki pasaytirish, xizmatdan bo'shatish, zarur hollarda esa ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortish kabi choralar qo'llaniladi.

Shuningdek, qoidabuzarliklarning takrorlanishining oldini olish maqsadida axloqiy tarbiya, xizmat etikasi bo'yicha o'quv mashg'ulotlari va ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish choralari nazarda tutilgan.

Mazkur bob politsiya tizimida xizmat intizomini ta'minlash, qoidabuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularga nisbatan adolatli choralar ko'rish orqali politsiya organlarining nufuzi hamda jamoatchilik ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Oltinchi bob **"Qo'shimcha qoidalar"** yakunlovchi qism hisoblanib, unda kodeks talablarini samarali amalga oshirish maqsadida xodimlarni muntazam o'qitish, kodeks ijrosi uchun mas'ul xodimlarni belgilash hamda uning normalarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha batafsil uslubiy va tashkiliy ko'rsatmalarni ishlab chiqish tartibi nazarda tutilgan.

"Qo'shimcha qoidalar" kodeks talablarini amaliyotga samarali joriy etish, ularning ijrosini ta'minlash hamda politsiya tizimida xizmat intizomini mustahkamlashga

qaratilgan tashkiliy mexanizmlarni belgilaydi.

Mazkur qoidalar ko'ra, politsiya xodimlari kodeks talablari, xizmat etikasi va korrupsiyaga qarshi me'yorlar bo'yicha muntazam o'qitilib, seminar va treninglarda ishtirok etadi. Bu ularning kasbiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, har bir politsiya organida kodeks talablariga rioya etilishini nazorat qiluvchi mas'ul xodim yoki bo'linma belgilanadi. Ular xodimlarga uslubiy yordam ko'rsatish, tushuntirish ishlarini olib borish, murojaatlarni qabul qilish hamda qoidabuzarliklar yuzasidan tegishli choralarni tashkil etish vazifalarini bajaradi.

Kodeks ijrosini ta'minlash maqsadida ichki nazorat tizimi yo'lga qo'yilib, xizmat intizomi muntazam baholanadi. Bunda asosiy e'tibor qoidabuzarliklarni aniqlash bilan birga ularning oldini olish, sog'lom axloqiy muhitni shakllantirish va xizmat madaniyatini rivojlantirishga qaratiladi.

Shuningdek, kodeksni qo'llashda yuzaga keladigan masalalar bo'yicha xodimlarga maslahat va tushuntirishlar berish, uni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish ham nazarda tutilgan.

Ushbu qoidalar kodeks normalarining amaliyotga to'liq va samarali joriy etilishini ta'minlash, xizmat intizomini mustahkamlash hamda politsiya xodimlarining kasbiy madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida Koreya Respublikasi Milliy politsiya agentligi xodimlarining xulq-atvor kodeksi mazmuni tizimli ravishda tahlil qilinib, uning kasbiy madaniyat va xizmat intizomini ta'minlashdagi o'rni baholandi. Mazkur kodeks faqat axloqiy me'yorlarni belgilovchi hujjat emas, balki politsiya faoliyatida qonuniylik, professionallik, halollik, shaffoflik, hisobdorlik va jamoatchilik ishonchini

ta'minlashga xizmat qiluvchi kompleks institutsional mexanizm ekanligini ko'rsatdi. Kodeksda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish, xizmat va xizmatdan tashqari xulq-atvor standartlarini belgilash, ichki nazorat tizimini takomillashtirish hamda xodimlarning kasbiy madaniyatini uzluksiz rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda ichki ishlar organlarini isloh qilish, ularni xalqchil va professional tuzilmaga aylantirish, xodimlarning kasbiy madaniyatini yuksaltirish hamda xizmat intizomini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Shu maqsadda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksida² xodimlarning xizmat va xizmatdan tashqari faoliyatida rioya etishi lozim bo'lgan odob-axloq qoidalari, rahbarlar va xodimlarning o'zaro munosabatlari, shuningdek, rag'batlantirish va intizomiy javobgarlik masalalari huquqiy jihatdan tartibga solingan.

O'tkazilgan qiyosiy tahlil O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi hamda Koreya Respublikasi Milliy politsiya agentligi xodimlarining xulq-atvor kodeksi o'rtasida konseptual uyg'unlik mavjudligini ko'rsatdi. Jumladan, har ikkala kodeksda ham xodimlarda yuksak kasbiy madaniyatni shakllantirish, xizmat intizomini mustahkamlash, korrupsiyaning oldini olish, fuqarolar bilan ochiq va samarali muloqotni rivojlantirish, xizmat faoliyatida qonuniylik, halollik va xolislik tamoyillariga rioya etishni ta'minlash hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga nisbatan jamoatchilik ishonchini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Shu bilan birga, Koreya Respublikasi Milliy politsiya agentligi faoliyati tahlili O'zbekiston ichki ishlar organlari tizimida qo'llash maqsadga muvofiq bo'lgan bir qator ilg'or institutsional yondashuvlarni aniqlash imkonini berdi.

Birinchidan, manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, deklaratsiya qilish va boshqarishning aniq huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadga

muvofiq. Bu xizmat qarorlarining xolisligi va shaffofligini ta'minlash hamda korrupsion xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, ichki ishlar organlari xodimlarining xizmatdan tashqari xulq-atvoriga doir axloqiy standartlarni yanada batafsil tartibga solish hamda ularni raqamli muloqot, ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat va jamoatchilik bilan muloqot madaniyatiga oid zamonaviy talablar bilan boyitish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, kasbiy madaniyat va xizmat etikasi bo'yicha majburiy uzluksiz malaka oshirish tizimini joriy etish, bunda nazariy mashg'ulotlar bilan bir qatorda xizmat faoliyatida uchraydigan amaliy vaziyatlar asosidagi o'quv mashg'ulotlari, xizmat etikasi bo'yicha keyslar, simulyatsion mashg'ulotlar hamda psixologik tayyorgarlik elementlarini keng qo'llash tavsiya etiladi.

To'rtinchidan, kodeks talablariga rioya etilishi ustidan ichki monitoringni kuchaytirish maqsadida xizmat etikasi bo'yicha mas'ul bo'linmalar faoliyatini rivojlantirish, ularga profilaktik tushuntirish ishlari, metodik ko'mak va maslahat berish vakolatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, xizmat intizomi va kasbiy madaniyatni baholashda faqat intizomiy javobgarlik ko'rsatkichlari bilan cheklanib qolmasdan, xodimlarning fuqarolar bilan muloqot sifati, etik me'yorlarga rioya etishi, jamoatchilik fikri, kasbiy kompetensiyasi hamda korrupsiyaga qarshi xulq-atvori kabi indikatorlarni ham baholash tizimiga kiritish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, Koreya Respublikasi tajribasi shuni ko'rsatadiki, kasbiy madaniyat va xizmat intizomi politsiya faoliyatining qo'shimcha elementi emas, balki uning samaradorligi, qonuniyligi va fuqarolar ishonchini ta'minlaydigan asosiy institutsional omillardan biridir. Mazkur tajribaning O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ichki ishlar organlarini modernizatsiya qilish islohotlari bilan uyg'unlashtirilishi ichki ishlar organlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi, professionalligi va xalqchilligini yanada oshirishga, shuningdek, jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-10-son qarori – <https://lex.uz/docs/6364837>.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Koreya Respublikasi Konstitutsiyasi (1948-yil 17-iyulda qabul qilingan, 1987-yil 29-oktyabrda tahrir qilingan) // Xorijiy mamlakatlar Konstitutsiyalari. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2018. 120-145-b.
2. Code of Conduct for National Police Agency Employees (Presidential Decree No. 28543, as amended) / National Law Information Center. Ministry of Government Legislation, Republic of Korea. – URL: <http://www.law.go.kr>;
3. O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuni 2016-yil 16-sentyabr;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-10-sonli qarori;
5. Yusupov A. Ichki ishlar organlarida kasbiy madaniyat va xizmat intizomi. – Toshkent, 2021.



Zebo NAMOZOVA,
“Ishonch” gazetasi bo‘lim muharriri

RAQAMLI MEDIA MEHNAT SOHASIDAGI HUQUQIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING KOMMUNIKATIV OMILI

Annotatsiya: maqolada O‘zbekistonda raqamli medianing fuqarolarning mehnat sohasidagi huquqiy savodxonligini oshirishdagi o‘rni va kommunikativ imkoniyatlari tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda mamlakatda mehnat munosabatlarini liberallashtirish, bandlikni ta‘minlash, platformaviy mehnatni huquqiy tartibga solish hamda fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilishga qaratilgan islohotlar axborot makonida mazkur mavzuning dolzarbligini keskin oshirdi. Shu bilan birga, Telegram kanallari, internet nashrlari, bloglar va boshqa raqamli platformalar mehnat huquqiga oid axborotni tezkor va ommabop shaklda tarqatish imkoniyatini yaratmoqda. Tadqiqotda raqamli medianing mehnat huquqiy savodxonlikni shakllantirishdagi kommunikativ mexanizmlari nazariy jihatdan tahlil qilinadi hamda O‘zbekiston tajribasi misolida ularning afzalliklari va mavjud muammolari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *raqamli media, mehnat huquqi, mehnat huquqiy savodxonligi, kommunikatsiya, ommaviy axborot vositalari, platformaviy bandlik, jurnalistika, yangi media.*

Аннотация: в статье анализируются роль цифровых медиа в повышении правовой грамотности граждан Узбекистана в сфере труда, а также их коммуникативные возможности. В последние годы проводимые в стране реформы, направленные на либерализацию трудовых отношений, обеспечение занятости населения, правовое регулирование платформенной занятости и защиту трудовых прав граждан, существенно повысили актуальность данной темы в информационном пространстве. Вместе с тем Telegram-каналы, интернет-издания, блоги и другие цифровые платформы создают широкие возможности для оперативного и доступного распространения информации по вопросам трудового права. В исследовании с теоретической точки зрения рассматриваются коммуникативные механизмы формирования правовой грамотности в сфере труда посредством цифровых медиа, а также на примере Узбекистана раскрываются их преимущества и существующие проблемы.

Ключевые слова: *цифровые медиа, трудовое право, правовая грамотность в сфере трудового права, коммуникация, средства массовой информации, платформенная занятость, журналистика, новые медиа.*

Annotation: this article examines the role of digital media in improving citizens' legal literacy in the field of labor in Uzbekistan and analyzes its communicative potential. In recent years, reforms aimed at liberalizing labor relations, promoting employment, regulating platform-based work, and protecting labor rights have significantly increased the relevance of this topic within the country's information environment. At the same time, Telegram channels, online news outlets, blogs, and other digital platforms provide effective opportunities for the rapid and accessible dissemination of labor law information. The study offers a theoretical analysis of the communicative mechanisms through which digital media contribute to the development of labor law literacy and, using the example of Uzbekistan, highlights their advantages as well as the existing challenges.

Key words: *digital media, labour law, labour law literacy, communication, mass media, platform employment, journalism, new media.*

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda mehnat munosabatlarini takomillashtirish, aholi bandligini ta‘minlash va fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining qabul qilinishi, “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi qonunning takomillashtirilishi, mehnat sohasini raqamlashtirish hamda platformali bandlikni huquqiy tartibga solishga qaratilgan islohotlar mazkur sohada yangi huquqiy munosabatlarni shakllantirmoqda. [1;2]

Mehnati munosabatlarining murakkablashib borishi fuqarolarning mehnat huquqiy savodxonligiga bo‘lgan ehtiyojni ham oshirmoqda. Agar avval mehnat huquqiga

oid axborotning asosiy manbai an‘anaviy ommaviy axborot vositalari bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda Telegram kanallari, internet nashrlari, ijtimoiy tarmoqlar, podkastlar va videobloglar fuqarolar uchun eng tezkor huquqiy axborot manbai sifatida shakllanmoqda. [3;4] Bu o‘zgarishlar amaliyotda ham namoyon bo‘lmoqda. Masalan, 2026-yilning birinchi yarmida Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimiga 54 mingdan ortiq murojaat kelib tushgan bo‘lib, ularning asosiy qismi mehnat huquqlari, aholi bandligi va ish bilan ta‘minlash masalalariga oid bo‘lgan. Murojaatlarning katta qismi elektron platformalar orqali qabul qilingan, shuningdek mehnat huquqi bo‘yicha huquqiy savodxonlikni oshirish



maqsadida maxsus raqamli botlar va onlayn muloqot platformalari yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, Davlat mehnat inspeksiyasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning birinchi yarmida 7 720 ta nazorat tadbiri o'tkazilib, 21 436 ta mehnat qonunchiligi buzilishi aniqlangan. Natijada 254 nafar noqonuniy ishdan bo'shatilgan xodim ishga tiklangan, 7 349 nafar fuqaroga 31 milliard so'mdan ortiq ish haqi undirib berilgan. Bu raqamlar mehnat huquqlarini himoya qilish mexanizmlari faollashayotganini ko'rsatish bilan birga, aholining o'z huquqlarini bilishi va himoya qila olishi dolzarb vazifa ekanini ham tasdiqlaydi.

Bugungi kunda raqamli media mehnat huquqiga oid axborotni tarqatish bilan cheklanmay, huquqiy maslahat berish, davlat organlari va jamoatchilik o'rtasida muloqotni ta'minlash, muammoli holatlarni jamoatchilik muhokamasiga olib chiqish hamda fuqarolarni huquqiy harakatga undash kabi vazifalarni ham bajarmoqda. [3;6;7] Ayniqsa, mehnat huquqiga ixtisoslashgan Telegram kanallari, huquqshunos blogerlar va internet nashrlari orqali tarqatilayotgan kontent aholining mehnat huquqi madaniyatini shakllantirishda muhim omilga aylanmoqda.

Shu bilan birga, mazkur jarayon jurnalistika nuqtai nazaridan yetarlicha ilmiy o'rganilmagan. Mavjud tadqiqotlarda asosan mehnat munosabatlari yoki ommaviy kommunikatsiyaning umumiy masalalari tahlil qilingan. Ammo raqamli media orqali mehnat sohasida savodxonlikni shakllantirishning kommunikativ mexanizmlari, ularning samaradorligi va jurnalistik

yondashuvlari kompleks tadqiq etilmagan. Shu nuqtayi nazardan mazkur maqolaning maqsadi — O'zbekiston tajribasi asosida raqamli medianing fuqarolar mehnat huquqiy savodxonligini oshirishdagi kommunikativ mexanizmlarini aniqlash, ularning amaliy ahamiyatini baholash hamda mazkur sohani takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqishdan iborat. "Maqolada raqamli media orqali mehnat huquqiy savodxonlikni shakllantirishning besh bosqichli kommunikativ modeli taklif etiladi. Mazkur model raqamli platformalarda mehnat huquqiga oid axborotning qabul qilinishi, muhokama qilinishi, jamoatchilik nazoratiga aylanishi va fuqarolarning huquqiy kompetensiyasini shakllantirish jarayonini izchil tushuntirishga xizmat qiladi.

Biz maqolada raqamli medianing mehnat huquqini rivojlantirish modeli sifatida "5K kommunikativ modeli"ni ishlab chiqdik. Quyida uning har bir bosqichlarini izohlab va tushuntirib ketamiz.

Raqamli media → Huquqiy axborot → Muhokama → Jamoatchilik nazorati → Huquqiy kompetensiya

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ommaviy kommunikatsiya tizimida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. An'anaviy ommaviy axborot vositalari asosan axborot yetkazish vazifasini bajargan bo'lsa, zamonaviy raqamli media axborot tarqatish, muloqot o'rnatish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va fuqarolarni muayyan ijtimoiy harakatlarga yo'naltirish kabi ko'p funksiyali kommunikasion maydonga aylanmoqda.

Mehnat munosabatlari sohasida ham raqamli medianing roli ortib bormoqda. Chunki mehnat huquqi ko'pchilik fuqarolar uchun murakkab va maxsus bilim talab qiladigan sohalaridan biri hisoblanadi. Mehnat shartnomasi, ish vaqti, dam olish vaqti, ish haqi, mehnat nizolari, ishdan bo'shatish tartibi kabi masalalarni oddiy tilda tushuntirishda jurnalistika va raqamli kommunikatsiya vositalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda raqamli media fuqarolarning mehnat huquqiy savodxonligini oshirishda quyidagi asosiy kommunikasion mexanizmlar orqali ta'sir ko'rsatmoqda.

1. Axborot-kommunikatsion mexanizm (Kommunikatsiya)

Avvallari mehnat qonunchiligiga oid ma'lumotlar asosan rasmiy hujjatlar, huquqiy adabiyotlar yoki an'anaviy OAV orqali tarqatilgan bo'lsa, bugungi kunda raqamli platformalar mazkur axborotni omma uchun soddalashtirilgan shaklda taqdim etmoqda. Masalan, yangi qonunchilikdagi o'zgarishlar, ish beruvchi va xodim huquqlari, mehnat ta'tili tartibi, ish haqini undirish masalalari qisqa xabarlar, infografikalar va videolar orqali keng tarqatilmog'da. Masalan, <https://t.me/mehnatuquqi>, https://t.me/Mehnat_huquqi_va_psixologiyasi, <https://t.me/yuristkadr>, <https://t.me/mehnatvazirligi>, <https://www.kasaba.uz> kabi sayt va telegram kanallar shular jumlasidandir.

2. Maslahat-kommunikatsion mexanizmi – (Konsultatsiya)

Raqamli medianing an'anaviy OAVdan asosiy farqi – interaktivlik xususiyatidir. Fuqaro endi faqat axborotni qabul qiluvchi emas, balki axborot jarayonining faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Masalan, xodim ish beruvchi tomonidan huquqi buzilgani haqida savol beradi, huquqshunosdan izoh oladi, jurnalist orqali muammosini jamoatchilikka olib chiqadi. Bu jarayon mehnat huquqi bo'yicha bilimni passiv qabul qilishdan faol o'zlashtirishga o'tkazadi.

3. Jamoatchilik nazorati mexanizmi – (Kontrol)

Zamonaviy jurnalistikaning muhim vazifalaridan biri – ijtimoiy ahamiyatga ega muammolar ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashdir. Mehnat munosabatlari sohasida jurnalistik materiallar ishchilar muammolarini ochib berish, ish beruvchilarning qonunbuzarlik holatlarini yoritish, mas'ul tashkilotlar munosabatini olish orqali ijtimoiy nazorat vositasiga aylanmoqda. Ayniqsa, raqamli platformalarda tarqalgan materiallar tezkor jamoatchilik reaksiyasini keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa jurnalistikani nafaqat axborot tarqatuvchi, balki ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga ta'sir ko'rsatuvchi institut sifatida namoyon etadi.

4. Muloqot va hamkorlik mexanizmi (Konsolidatsiya).

Mehnat huquqi sohasida samarali kommunikatsiya faqat jurnalist va auditoriya o'rtasidagi munosabat bilan cheklanmaydi. Bu jarayonda davlat organlari, huquqshunoslar, kasaba uyushmalari, ish beruvchilar va xodimlar o'rtasidagi muloqot muhim ahamiyatga ega. Raqamli media ana shu ishtirokchilarni yagona axborot

maydoniga birlashtirish imkonini beradi. Masalan, mehnat nizosi haqidagi jurnalistik material nafaqat muammoni ko'rsatadi, balki uni hal etish jarayonida turli tomonlarning pozitsiyasini namoyon qiladi.

5. Huquqiy kompetensiyani shakllantirish mexanizmi – (Kompetensiya)

Raqamli medianing eng muhim natijasi – fuqaroning huquqiy faolligini oshirishdir. Agar avval fuqaro o'z mehnat huquqlarini bilmagani sababli muammoga befarq qaragan bo'lsa, bugungi axborot muhiti unga huquqini bilish, himoya qilish usullarini o'rganish, tegishli tashkilotlarga murojaat qilish imkoniyatini bermog'da. Demak, raqamli media mehnat huquqiga oid axborot tarqatish bilan cheklanmay, shaxsning huquqiy kompetensiyasini shakllantiruvchi omilga aylanmoqda.

Mehnat munosabatlarini yoritishda raqamli medianing yangi imkoniyatlari

Raqamli media sharoitida mehnat munosabatlarini yoritish faqat axborot tarqatish vazifasi bilan cheklanib qolmay, jamoatchilik bilan muloqot o'rnatish, huquqiy bilimlarni ommalashtirish va fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish vositasiga aylanmoqda. Bugungi auditoriya mehnat sohasidagi ma'lumotlarni faqat qabul qiluvchi emas, balki uni izlovchi, savol beruvchi va muhokama jarayonida ishtirok etuvchi subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda.^[3;6;8] Shu sababli jurnalistika oldida yangi vazifa paydo bo'lmoqda: mehnat huquqiga oid axborotni oddiy yetkazish emas, balki uni inson hayotidagi amaliy ahamiyati bilan bog'lab tushuntirish.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli platformalar orqali tarqatilyotgan mehnat mavzusidagi materiallar fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirishda sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarda mehnat huquqiga oid savol-javoblar, huquqshunoslar ishtirokidagi tushuntirishlar va fuqarolar murojaatlari asosida tayyorlangan materiallar keng tarqalmoqda. **Biroq raqamli medianing imkoniyatlaridan to'liq foydalanish uchun mehnat mavzusidagi jurnalistik materiallarni tayyorlashga nisbatan yangi yondashuvlar zarur.**

Birinchidan, mehnat mavzusini inson manfaati nuqtai nazaridan yoritish zarur. Mehnat munosabatlari ko'p hollarda qonunchilik tilida yoritiladi. Ammo oddiy fuqaro uchun muhim bo'lgan savollar boshqacha – "Mening huquqim buzilsa, qayerga murojaat qilaman?", "Ish beruvchi qanday majburiyatlarga ega?", "Mehnat shartnomasisiz ishlash qanday oqibatlarga olib keladi?" kabilardir. Shuning uchun zamonaviy jurnalistikada huquqiy ma'lumotni inson taqdiri, real voqea va amaliy misollar orqali tushuntirish samarali usul hisoblanadi.

Ikkinchidan, jurnalistik materiallarda ekspertlik darajasini oshirish talab etiladi. Mehnat huquqi murakkab sohalaridan biri bo'lgani sababli jurnalist faqat voqeani yoritish bilan cheklanmasligi kerak. Materialda mehnat huquqi mutaxassisi, huquqshunos, olim, tegishli tashkilot vakillari fikrlariga o'rin berish materialning ishonchligini oshiradi. Bu, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan

huquqiy mazmundagi kontent uchun muhimdir. Chunki tezkorlik bilan bir qatorda axborotning aniqligi va huquqiy asoslanganligi ham ta'minlanishi lozim.

Uchinchidan, multimedia imkoniyatlaridan samarali foydalanish kerak. Mehnat qonunchiligiga oid ko'plab tushunchalar murakkab bo'lgani uchun ularni turli formatlarda taqdim etish zarur. Masalan: qisqa videolar; infografikalar; savol-javob shaklidagi materiallar, podkastlar, interaktiv loyihalar auditoriyaning mavzuni tushunish darajasini oshiradi. Bu yerda jurnalistning vazifasi qonun normasini shunchaki qayta aytish emas, balki uni auditoriya uchun qulay kommunikatsion shaklga aylantirishdan iborat.[6;8;9]

To'rtinchidan, platforma bandligi kabi yangi mehnat shakllariga alohida e'tibor qaratish lozim. Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi natijasida mehnat munosabatlarining yangi ko'rinishlari paydo bo'lmoqda. Taksi, yetkazib berish, onlayn xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat yuritayotgan shaxslarning huquqiy maqomi, ijtimoiy kafolatlari va mehnat sharoitlari jurnalistika uchun yangi tadqiqot yo'nalishlarini ochmoqda. Bu sohada jurnalistning vazifasi faqat muammoni ko'rsatish emas, balki yangi mehnat munosabatlarining ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy jihatlarini kompleks tahlil qilishdan iborat.[1;2;10]

Xulosa va ilmiy takliflar.

Raqamli transformatsiya sharoitida mehnat munosabatlarini yoritish jurnalistikaning yangi yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Raqamli media fuqarolarga mehnat huquqlari haqida tezkor axborot

yetkazish bilan birga, ularning huquqiy ongi va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.[3;6]

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, raqamli media mehnat huquqiy savodxonlikni oshirishda an'anaviy OAVga nisbatan kengroq imkoniyatlarga ega. U axborot berish, muloqot o'rnatish va jamoatchilik ishtirokini ta'minlash funksiyalarini bir vaqtda bajara oladi.

Ikkinchidan, mehnat munosabatlarini mavzusini yoritishda zamonaviy jurnalistika faqat xabar berish bilan cheklanmasdan, tushuntiruvchi, tahliliy va inson manfaatiga yo'naltirilgan yondashuvlarga tayanishi lozim.

Uchinchidan, O'zbekiston mediamakonida mehnat huquqiga oid kontent sifatini oshirish uchun jurnalistlar, huquqshunoslar va tegishli tashkilotlar o'rtasida hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

To'rtinchidan, kelajakda mehnat munosabatlarini yoritishda data-jurnalistika, multimedia texnologiyalari va raqamli platformalar imkoniyatlaridan keng foydalanish mazkur sohadagi jurnalistik materiallarning ta'sirchanligi va samaradorligini oshiradi. Shunday qilib, raqamli media zamonaviy jamiyatda mehnat huquqiy savodxonligini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy-kommunikativ institutga aylanmoqda. Uning imkoniyatlaridan ilmiy asoslangan holda foydalanish esa mehnat munosabatlarini yoritish sifatini oshirish va fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.[6;10]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ–642, 20.10.2020.
3. Muratova N. Onlayn jurnalistika: nazariya va amaliyot. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Qaqnus Media, 2019.
4. Muratova N., Qosimova N., Alimova G., Dadaxonov A., Ilyosxonova a., Xolmatova S., Hakimova N. Onlayn jurnalistika va mediada yangi trendlar. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
5. Do'stmuhammad X. Jurnalistning kasb odobi muammolari: nazariy-metodologik tahlil. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
6. McQuail D. McQuail's Mass Communication Theory. 7th ed. – London: Sage Publications, 2019.
7. Castells M. The Rise of the Network Society. 2nd ed. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2010.
8. Jenkins H. Convergence Culture: Where Old and New Media Collide. – New York: New York University Press, 2006.
9. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Educators. – Paris: UNESCO, 2021.
10. International Labour Organization. World Employment and Social Outlook: Trends 2025. – Geneva: ILO, 2025.

